

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA

MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O`ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

IV KURS BITIRUVCHISI

Rasulova Gulmira Zikrullayevnaning

“BUXORO XALQ MUXAMMASCHILIGINING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI”

MAVZUSIDAGI

*5120100- Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili)
yo`nalishida bakalavr akademik darajasini olish uchun yozgan*

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

(2016-2017- o`quv yili)

Ilmiy rahbar:

O`rayeva D.S.

filologiya fanlari doktori, prof.

Buxoro xalq muxammaschiligining o'ziga xos xususiyatlari

Reja:

Kirish.

Birinchi bob. Buxoro xalq qo'shiqchiligining jahonshumul shuhrati.

I.1. Buxoro folklorining o'zbek folklorshunosligi kontekstida o'rganilishi.

I.2. Buxoro folklorida qo'shiqchilik san'ati.

Ikkinchi bob. Buxoro to'y folklori tizimida muxammaslarning o'rni va o'ziga xos xususiyatlari

II. 1. To'y muxammaslarining janriy tabiati va mavzuiy turlari.

II. 2. To'y muxammaslarining badiiy-kompozitsion qurilishi va tili.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

KIRISH

BMI mavzusining dolzarbligi. Har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.¹ Darhaqiqat, bugungi davr har bir xalq tarixini, milliy qadriyatlarini, madaniy merosini chuqur va atroflicha o'rganishni shu asosda – Vatanimiz erishgan istiqloolni, uning g'oyalarini yanada mustahkamlashni zaruriy vazifa sifatida ko'ndalang qo'ymoqda. Zero, Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek: “Urf-odat, qadriyatlarimiz, meroslarimiz mohiyatini yoshlar ongiga singdirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizning beg'uborligini saqlagan holda yoshlarga yetkazish, ular ma'naviyati poklanishining muhim omillaridan biridir”.² Shunday ekan, xalq ijtimoiy-badiiy tafakkurining hosilalaridan biri sifatida avloddan-avlodga o'tib, insonlarga ijtimoiy-estetik ta'sir ko'rsatib kelayotgan xalq og'zaki ijodi sirlarini yanada chuqurroq o'rganishga va bu ishga yosh avlodni ham jalb etishga to'g'ri keladi.

Xalq og'zaki ijodining turli janrlarida turli darajada o'z badiiy ifodasini topgan xalq tarixi, uning turmush tarzi, madaniyati tadqiqi folklorshunoslikning hamisha dolzarb vazifalaridan biri bo'lib kelgan.

Xalqimizning ma'naviy-ruhiy dunyosini, urf-odatlari va turmush tarzining asosiy tamoyillarini o'ziga singdirib olgan marosimlar va ularga aloqador qo'shiq va aytimlar ta'sirchanligi bilan ma'naviy jihatdan barkamol yosh avlodni tarbiyalab voyaga etkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ular inson hissiyotlariga ma'naviy ta'sir ko'rsatish qudratiga ega. Xalq qo'shiqlarining bir turi bo'lgan to'y muxammaslari insonning insonga mehr-muhabbatini, samimiy munosabatini o'zida badiiy ifoda etadi. Shuning uchun ularni maxsus o'rganish zarur masalalardan biri hisoblanadi. Ammo o'zbek marosimlariga aloqador

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – T.: Mana'viyat, 2008. – B.30.

² Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. – T.:O'zbekiston, 1997. – B.245.

muxammaslar tabiati, genezisi va badiiyati masalasi shu kungacha etarli va chuqur tadqiq qilingan deyish qiyin. Chunki ular bag`rida qadimgi ajdodlarimizning turmush tarziga oid maishiy tushunchalar hamda poetik tafakkur taraqqiyotining ilk qatlamlariga mansub an'anaviy tushunchalar ta'siri saqlanib qolganki, ularni bu jihatdan chuqur o'rganishga faqat istiqlol yillarida keng yo'l ochildi. Shundan foydalanib, hozirgi paytda marosim olqishlarini keng va chuqur o'rganish lozim. Zero, ularni o'rganish orqali e'tiqodiy qarashlarning folklor namunalaridagi badiiy talqinlarini tadqiq etish imkoni paydo bo'ladi.

To'g'ri, o'zbek folklorshunosligida xalq qo'shiqlarining badiiy-etnografik mohiyati bilan bog`liq masalalarga nisbatan qiziqish kuchli. Lekin shunday bo'lsa-da, haligacha xalq muxammaslarining janriy tabiatini ochib beruvchi, genezisini yorituvchi, o'ziga xos badiiyatini, ijro xususiyatlarini ko'rsatib beruvchi, ular haqida yaxlit ilmiy tasavvur uyg`otuvchi maxsus tadqiqot yaratilmagan. Ularning ichki mavzuiy tiplari aniqlanmagan. Shu ehtiyojdan kelib chiqib, o'zbek xalq to'y marosimi muxammaslarining janriy tabiatini, kelib chiqish asoslarini, ijtimoiy-etnografik va badiiy mohiyatini, poetik xususiyatlarini, xalq ijodi durdonalari orasida tutgan o'rnini, boshqa janrlar bilan munosabatini o'zaro bog`liqlikda maxsus tadqiq etish dolzarb ilmiy muammo ekanligini ta'kidlashga to'g'ri keladi.

BMI mavzusining o'rganilganlik darajasi. O'tgan asrning qirquinchi yillaridan boshlab o'zbek nikoh marosimi qo'shiqlarini to'plash va nashr qilish sohasida ayrim ishlar amalga oshirildi. Nikoh to'yining kelin salom, yor-yor, lapar, o'lan singari janrlari namunalari bir qadar to'plandi, ularning ijro tarzi, badiiy tabiati xususida ilmiy mulohazalar yuritila boshlandi,³ bu qo'shiqlar matnlarining ma'lum qismi turli manbalarda e'lon qilindi⁴. Lekin hanuzgacha o'zbek nikoh

³ Alaviya M. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari; Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori; O'zbek folklori ocherklari; Safarov O. «Kelin o'tirsini» va «kuyov o'tirsini» marosim qo'shiqlari. - «O'zbek tili va adabiyoti», 1989 yil, 5-son, 35-39-betlar; Yana: «Kuyov eltish», «Kelin eltish» udumlari va jarlar. - «O'zbek tili va adabiyoti», 1991 yil, 6-son, 35-39-betlar.

⁴ Qo'shiqlar va ashulalar. - Toshkent, 1940; O'zbek folklori. Majmua. 2-kitob (tuzuvchi H. Zarif). - Toshkent, 1941; Sodiqov M. O'zbek qo'shiqlari. - Toshkent, 1941; Alaviya M. O'zbek xalq qo'shiqlari. - Toshkent, 1954; So'nmas quyosh. - Toshkent, 1962; Xorazm xalq qo'shiqlari (To'plovchi va nashrga tayyorlovchi J.Qobulniyozov). - Toshkent, 1966; Gulyor. Farg'ona xalq qo'shiqlari (To'plovchi va nashrga tayyorlovchi H.Razzoqov). - Toshkent, 1967; Madhiya. - Toshkent, 1967; Oq olma, qizil olma (To'plovchi M.Alaviya). - Toshkent, 1972; Kelinoy qo'shiqlari (To'plovchi va nashrga tayyorlovchi O.Sobirov). - Toshkent, 1981; Sovet davri xalq qo'shiqlari (Nashrga tayyorlovchilar M. Alaviya, S. Ro'zimboyev). - Toshkent, 1983.

to'yi marosimi folklorining butun janriy xilma-xilligini o'z ichiga olgan alohida to'plam va alohida ilmiy tadqiqot ishi nashr etilgani va yaratilganicha yo'q. Holbuki, o'zbek nikoh to'yi marosim folklori shu qadar boy va rang-barangki, ularning har biri u yoki bu marosimga uzviy aloqadorlikda muayyan vazifa ado etishdan tashqari, o'zgacha ijro o'rni va usullariga egaligi bilan ajralib turadi. Ularning har biri vodiy va vohadagi ijro usullariga ko'ra ham o'ziga xosdir. Bu xususiyatlarni yaxlit holda o'rganish, o'zbek nikoh to'yi marosim folklori namunalarini butun rang-barangligi bilan to'la yig'ish, ijro jarayoni va usuli, badiiyatini o'rganish, janriy tabiatini ochish va tasnifotini ishlab chiqish o'zbek folklorshunosligi oldida turgan eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Shundagina o'zbek nikoh to'yi marosimini to'laligicha tasavvur etish imkoniyati tug'iladi. O'zbek nikoh to'yi marosim folklorining etarlicha to'planmagani va nashr qilinmagani bu vazifani bajarishga mone'lik qilib turibdi. Misol uchun, kelin sochini mayda o'rganda, unga yangi kiyim kiygizganda, qo'l va oyog'iga xino bog'laganda, kelin-kuyovga baxt to'shagi solinganda, isiriq tutatganda va to'yning boshqa jarayonlarida ijro etiladigan nazmiy va nasriy aytimlar; kelin, kuyov va qudalar tashrifi munosabati bilan aytiladigan «Xush kelibsiz» qo'shiqlari, olqishlar; qizning tug'ilgan uyidan ketar chog'ida ota-onasi bilan aytadigan rizolashuv, kuyovni kuzatib borish marosimida kuylanadigan jarlar va «Antalhodiy», «Kuyovto'ra ta'rifi», «Kelin ta'rifi», «Kelin o'tirsin» va «Kuyov o'tirsin» qo'shiqlari; kelin va kuyovni go'shanga – chimildiqqa olib kirish paytida aytiladigan «Salomnoma»lar, «Muborakbod» qo'shiqlari va boshqa shu xildagi qo'shiqlari she'rlar borki, ularni to'plash ham, nashr qilish ham, ilmiy jihatdan tadqiq etish ham talab darajasida emas. Chunonchi, to'y muxammaslari ham shular sirasiga kiradi.

Nikoh to'yi kompozitsion bir butunlik holatida mavjud va u ana shunday yaxlitligicha o'rganilmog'i lozim. Nikoh to'yi folklorini to'plash hamda tadqiq qilish bo'yicha bir qadar ishlar qilingan bo'lsa-da⁵, lekin o'sha

⁵ Alaviya M. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. – Toshkent, 1984; O'zbek folklori ocherklari. Uch tomlik. 1-tom. – Toshkent, 1988 va boshqalar.

marosimlarga daxldor detallar va ular bilan bog`liq folklor namunalari to`lig`icha chuqur o`rganilgani yo`q. Buning ustiga nikoh to`ylarining O`zbekistonning har bir regionida turlicha rasm-rusumlar bilan o`tkazilgani inobatga olinsa, manzara yanada ravshanlashadi. Aytaylik, Buxoro nikoh to`ylarida an`anaga aylanib, hamon davom etayotgan muxammasxonlik ham shular jumlasidandir. Ularning janriy tabiatini tadqiq etish folklorshunoslik jihatidangina emas, balki etnografik jihatdan ham ilmiy-amaliy qimmatga ega.

Marosim folklori tushunchasi, B.Sarimsoqovning belgilashicha, ikki muhim komponentni – marosimning syujeti (kechish tarzi va bajariladigan xatti-harakatlar) hamda uning so`z (verbal) uzvini o`z ichiga oladi⁶. Shu nuqtai nazardan to`y muxammasxonligini tahlil qiladigan bo`lsak, dastlab, ularning ijro o`rni va maqsadi, ijro qilinish tarzi va ijrochilari xususida to`xtalishga to`g`ri keladi.

O`zbek folklorshunosligida to`y xalq muxammaslari maxsus o`rganilmagan bo`lsa-da, u bilan bog`liq urf-odatlar mazmuni, ijro o`rni va payti haqida o`zbek va boshqa xalqlar folklorshunosligida ba`zi ma`lumotlar uchraydi. Jumladan, o`zbek to`y marosimi qo`shiqlari haqida dastlabki ilmiy mulohazalarni taniqli folklorshunos Muzayyana Alaviya ilgari surgan.⁷ Bu haqda uning “O`zbek xalq marosim qo`shiqlari» monografiyasida, O.Safarovning “Oila ma`naviyati”,<sup>8</sup> “O`zbek xalq og`zaki poetik ijodi” darsligida hamda olimning D.O`rayeva va M.Qurbonovalar bilan hamkorlikda yaratilgan “O`zbek folklori va etnografiyasi” darsligida ma`lumot berilgan.

O`zbek to`y marosimi muxammaslarini etnografik jihatdan yozib olish ham etarli emas.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-nazariy asoslari va metodi. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning ma`naviy qadriyatlarni tiklash va milliy an`analarni takomillashtirish, mehr-muruvvatli bo`lishga chorlovchi g`oyalarni

⁶ Sarimsoqov B. O`zbek marosim folklori. – Toshkent: Fan, 1986.

⁷ Sarimsoqov B. O`zbek marosim folklori. – Toshkent: Fan, 1986.

⁸ Safarov O., Mahmudov M. Oila ma`naviyati. – T.: Ma`naviyat, 2010.

qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslari haqidagi qarashlari mazkur malakaviy bitiruv ishining metodologik asosini tashkil etadi.

Buxoro to'y muxammaslarining o'ziga xos xususiyatlarini, kelib chiqish ildizlarini, janriy tabiatini, badiiy qirralarini o'rganishda I.Jabborov, M.Alaviya, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, O.Safarov, M.Jo'rayev, G`.G`afurov, H.Ismoilov, D.O'rayeva kabi etnograf va folklorshunos olimlarning asarlari asosiy ilmiy-nazariy manba vazifasini o'taydi. Chunki Buxoro to'y muxammaslari o'ziga xos keng qamrovli tadqiqot ob'ekti bo'lib, unga aloqador badiiy hodisalarning mohiyatini chuqur idrok etish uchun folklor tarixidan tashqari to'y marosimlari bilan bog'liq urf-odatlarini, rasm-rusumlarni, ularning tarixiy taraqqiyotini chuqur bilish ham talab etiladi. Shuni inobatga olib, tadqiqotda udumshunoslarning ham bu boradagi nazariy mulohazalariga yaqindan tayanildi.

Ishda to'y marosimi muxammaslari bilan yozma adabiyotdagi muxammaslar hamda xalq ijodidagi boshqa (lirik, marosim) qo'shiqlar tarixiy-qiyosiy metod asosida ilmiy tadqiq etildi. Chunki to'y marosimi muxammaslarini tarixiy-qiyosiy usulda o'rganish ularning tarixiy-maishiy asoslarini, badiiy tafakkur bilan bog'liq taraqqiyotini, o'ziga xos badiiy olamini, janriy tabiatini aniqlash imkoniyatini yaratadi.

Tadqiqotning maqsadi. Buxoro to'y muxammaslarining o'ziga xos xususiyatlarini, kelib chiqish ildizlarini, janriy tabiatini, badiiy qirralarini o'rganish, mavzuiy turlarini tasniflab ko'rsatish ushbu malakaviy bitiruv ishining asosiy maqsadini tashkil etadi.

Tadqiqotning vazifalari:

- Buxoro to'y muxammaslarining kelib chiqishini tekshirish;
- "muxammas" atamasi mohiyatini yoritish;
- Buxoro to'y muxammaslarining janriy tabiatini belgilash va mavzuiy tiplarini aniqlash;
- to'y marosimi muxammaslarining ijro uzvlarini ko'rsatib berish;
- to'y marosimi muxammaslari bilan bog'liq rasm-rusumlarni ko'rsatib o'tish;

-to'y marosimi muxammaslarining folklordagi boshqa lirik janrlar bilan genetik aloqadorligini tekshirib, ular o'rtasidagi estetik munosabatni baholash;

- to'y marosimi muxammaslaridagi an'anaviy motivlar va obrazlarning asoslarini o'rganish;

- Buxoro to'y muxammaslarida xalqning so'z san'atidan foydalanish mahoratini kuzatish va baholash.

Bitiruv malakiy ishining manbalari. Ishni yozishda Buxoro davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida huzuridagi Folklor arxivida saqlanayotgan materiallar asos qilib olindi. Ayni chog'da ishda shaxsan yozib olingan to'y muxammaslaridan ham ijodiy foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ma'lumki, Buxoro to'y muxammaslari, uning janriy tabiati, genezisi va badiiyati hozirga qadar alohida holda maxsus ilmiy tadqiq qilinmagan edi. Ushbu malakaviy bitiruv ishi esa shu yo'nalishdagi dastlabki ilmiy ish hisoblanadi. Bu esa, uning eng muhim, ilmiy yangiligi hisoblanadi. **Ikkinchidan**, o'zbek to'y marosim muxammaslarining ichki mavzuiy turlari tasnifi, uning badiiy-ijtimoiy vazifasi ushbu ishda ilk marta etnofolkloristik nuqtai nazardan yoritilmoqda. **Uchinchidan**, to'y marosimi muxammaslarining folklordagi boshqa she'riy janrlar bilan genetik bog'liqligi tekshirilib, ular o'rtasidagi estetik munosabat ilmiy jihatdan o'rganilmoqda. **To'rtinchidan**, o'zbek to'y marosimi muxammaslarining asosiy motivlari va obrazlar tarkibi, badiiy qurilishi va lingvopoetik xususiyatlari keng ilmiy tadqiq etilmoqda. Shuningdek, ishda yana o'zbek to'y marosim muxammaslarining g'oyaviy-estetik vazifalari, ijro o'rni, payti, ijrochilari, ommaga axloqiy-estetik ta'siri masalalari ham yaxlit tizim shaklida ilk marta yoritishga harakat qilindi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy farazi. O'zbek to'y marosimi muxammaslarini yaxlit badiiy tizim sifatida tadqiq etishga bag'ishlangan ushbu bitiruv-malakaviy ishining asosiy tahliliy xulosalari va umumlashmalari o'zbek to'y qo'shiqlarini hamda yozma va og'zaki ijoddagi muxammas janrlarini o'zaro qiyosiy o'rganishda hamda fikrni poetik bayon qilish an'anasining taraqqiyot bosqichlarini aniqlashda muhimdir.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.

Chiqarilgan ilmiy xulosalar o'zbek folklorshunosligida to'y marosimi folklorini to'la tavsiflash va ilmiy tahlil qilishda, shuningdek, to'y marosimi qo'shiqlarining badiiyati yuzasidan tadqiqotlar olib borishda nazariy manba bo'lib xizmat qilishi shubhasiz. O'zbek to'y marosimi muxammaslarini o'rganish boshqa so'z sehriga asoslanuvchi marosim folklori namunalariga xos poetik xususiyatlarni, ularning kelib chiqishini o'rganishga ham yordam beradi. Shu orqali xalq badiiy ijodining rivojlanish yo'llarini, inson ruhiy hissiyotlarining badiiy so'zga ko'chish tamoyillarini, xalqimizning an'anaviy urf-odatlarini chuqurroq anglab olishga imkon yaratadi.

Ishda keltirilgan fikr-mulohazalardan oliy o'quv yurtlarida xalq og'zaki badiiy ijodiyoti, etnografiya fanlari bo'yicha maxsus kurslar o'tishda va ma'ruzalar o'qishda, akademik litseylarda folklor fanidan o'zbek marosimlari bo'yicha dars mashg'ulotlari olib borishda, o'zbek folkloridan o'quv qo'llanmalari, majmualar, izohli atamashunoslik lug'atlari yaratishda foydalanish mumkin.

Ishning sinovdan o'tishi. Ushbu tadqiqot Buxoro davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasining maxsus yig'ilishida muhokama etilib, himoyaga tavsiya qilingan.

BMI tarkibining qisqacha tavsifi. Malakaviy bitiruv ishi kirish, ikki asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan tashkil topgan.

BIRINCHI BOB

BUXORO XALQ QO'SHIQCHILIGINING JAHONSHUMUL SHUHRATI

I.1. Buxoro folklorining o'zbek folklorshunosligi kontekstida o'rganilishi

Ko'hna va navqiron Buxoro zaminida o'zbek folklorining kattagina zahirasi haligacha yashirilib yotibdi. Buxoro tarixi juda qadimiydir. Shu uzoq tarixiy taraqqiyotni kechirgan hududda juda boy folklor jamlangan. Buxoro folklori lokal belgilariga ko'ra alohida o'ziga xosliklarga ega. Unga xos ana shu lokal xususiyatlarni o'rganish esa hamisha dolzarb bo'lib kelgan.

Buxoro folklorini hududiy to'plash va o'rganish harakati, asosan, o'tgan asrning 20-yillaridan boshlangan. Dastlab Buxoro musiqa folklori va "Shashmaqom"ni yozib olish va tadqiq qilish jiddiy tus olgan. Bu ishning boshida ulkan tarixchi va davlat arbobi Fayzulla Xo'jayev bilan qomusiy olim Abdurauf Fitrat turganlar.

Fayzulla Xo'jayev o'sha davrda O'rta Osiyo xalqlari musiqa merosini o'rganish uchun Turkiston o'lkasiga kelgan mashhur musiqa etnografi V.A.Uspenskiyni Buxoroga taklif etib, keksa maqomdonlar Bobo Jalol va Bobo G'iyoslardan "Shashmaqom"ning to'la variantini notaga olishni kelishib oladi. V.A.Uspenskiy bu mashaqqatli vazifani 1923 yilda boshlab, 1924 yilda A.Fitrat va N.N.Mironov tahriri bilan Moskvada nashr ettiradi. F.Xo'jayev Uspenskiyning xizmat haqini oltin bilan to'laydi".

Biroq V.A.Uspenskiy o'sha davrda Buxoro xalq qo'shiqlarining she'r matnini yozib olmagan. U faqat bu qo'shiqlarning musiqasini notaga ko'chirgan, xolos.

Keyinchalik bu an'anani taniqli san'atshunoslar F.Karomatov va N.Nurjonovlar davom ettirganlar. F.Karomatov Buxoro ijrochiligiga xos

“Mavrigi” qo’shiqlari matnlarini yozib olib, e’lon qildi, unga oid mulohazalarini bayon etdi⁹.

Hatto 3.Tojikova mavrigixonlikka oid nomzodlik ishi yozdi va ayrim maqolalarini e’lon qildi¹⁰.

1970-1990 yillar davomida taniqli buxorolik folklorshunos O.Safarov “Buxorcha” va “Mavrigi” turkumlari”ga xos qo’shiqlarni yozib ola boshladi va raqslarini o’rganishga kirishdi. Shular asosida olim 1998 yilda “Guliston” jurnalida (3-son, 32-33-b.), “BuxDU ilmiy axboroti”da “Buxorcha” raqslarining jono’rtar jozibasi” (2000, 1-son,19-22-b.) va “Tafakkur” jurnalida “Buxorcha” raqslar jozibasi” (2004,3-son, 116-117-b.) kabi maqolalarini yozib e’lon qildi.

Buxorodagi og`zaki ijod namunalaridan ijodiy maqsadlarda foydalanish asnosida ularni o’rganishda tashabbuskor bo’lganlardan biri – ustoz Ayniy bo’lganligi shubhasiz. U asrimizning boshlaridayoq bunday kuzatishlarini boshlab yuborgan, keyinchalik yaratgan “Odina”, “Doxunda”, “Qullar”, “Sudxo’rning o’limi”, “Esdaliklar” singari o’lmas obidalarida xalq maqollari, qo’shiqlari, rivoyatlarini edirib yuborgan, shu asosda asarlari badiiy jozibasini, xalqchilligini kuchaytirishga erishgan edi. Bu jihatdan loaqal “Shoh qiz” lapari va “Jilvon arig`i” haqidagi xalq qo’shiqlarini eslash kifoya. Ustod Ayniy shular bilangina cheklangan emas, u Buxoro bolalarining “Ko’z boylog`ich”, “Xushtut o’yini”, “Ketma-ket o’yin”, “Arpa necha man”, “Aylana-aylan”, “Gachao’yin” singari 14 o’yinini maxsus yozib oldi va 1931 yilda Rahim Hoshim (Mim) bilan hamkorlikda boshlang`ich maktablarning 2-sinfida o’qishga mo’ljallab yaratgan “Rohi nav” (“Yangi yo’l”) darsligiga kiritdi.

20-yillarda Buxoro xalq qo’shiqlari, maqollari, topishmoqlari va ertaklaridan ayrim namunalarni yozib olishda Elbek alohida tashabbus ko’rsatdi. U 1922-23 yillar davomida Buxoroda bo’lib, o’zi yozib olgan folklor namunalarini “Buxoro axbori” gazetasi va “Maorif va madaniyat” jurnalining 1923 yil noyabrida chiqqan 1-sonida e’lon qildi, keyinchalik ulardan

⁹ Karomatov F.O’zbek xalq muzika merosi (Terma, yalla, qarsak). 2-tom. – Toshkent, 1985. – B. 150-191.

¹⁰ Tojikova 3. Mavrigixon. Maorif va madaniyat. 1986. 16 avgust.

ayrim namunalarni G`ulom Zafariy bilan hamkorlikda 1925 va 1935 yillar orasida uch marta nashr ettirgan “Ashulalar” to’plamiga ham kiritdi.

Buxoro folklorini regional to’plash va o’rganish boshda shu xilda boshlandi. Hatto buxorolik xalq baxshisi Saidmurod Panoh o’g’li faoliyati aniqlandi. 1937-1938 yillarda shoir Amir Umariy undan “Kunlarim” termasini va “Mullalar to’g’risida”, “Amirning o’lponchilariga qarshi” qo’shiqlarini yozib olib, keyingi ikki qo’shiqni “Guliston” jurnali (1938 yil 7-soni)da e’lon qilgan. M.Toshpo’latova esa undan “Qamayda”, “Gulzorim bor” qo’shiqlarini, M.Zarifov “Odilxon” dostonining bosh qismini yozib olishga muvaffaq bo’lgan.

Biroq shoirning “Alpomish”, “Go’ro’g’lining Qrimga borishi” dostonlarini hamqishlog’i, 6-sinf o’quvchisi Shamsi Murodov yozib olgan. Keyinchalik ana shu manbalarni sinchiklab o’rganib, Kenegas qishlog’ilik Saidmurod Panoh o’g’li (Murod jirov, 1875-1945) ning ilmiy-ijodiy biografiyasini tiklashda T.Mirzayev salmoqli ish qildi. U jirovning barcha dostonlari, qo’shiq va termalarini sinchiklab o’rgandi va “Odilxon” nomi ostida 1972 yilda chop ettirdi va bu ishi bilan Buxoro dostonchilik maktabi an’analari asrimizning 40-yillarida ham davom etganligini isbotlab berdi.¹¹

Professor Hodi Zarif boshchiligida o’zbek folklorshunoslaridan T.Mirzayev, M.Murodov, K.Imomov, B.Sarimsoqov, A.Musaqulov va M.Jo’rayevlar 1960-1980 yillar davomida Buxoro shahri va tumanlarida bir necha bor ekspeditsiyalar uyushtirib, voha folklorini regional to’plash va o’rganish sohasida birmuncha ishlarni amalga oshirdilar. Ushbu izlanishlar jarayonida ular shu muzofotda yashab ijod etgan G’ijduvon tumanining Zahkash qishlog’ilik Amin jirov Malik o’g’li (1882-vafot yili noma’lum), Kogon tumanining Oxunberdi qishlog’ilik Zohir Qo’chqor o’g’li (1920), Qorako’l tumanining Chovli qishlog’ilik Umur shoir Vali o’g’li (1846-1916) va Jumaqul Jumaniyoz o’g’li (1876-1962) singari xalq ijodkorlari nomlarini aniqladilar. Talay xalq qo’shiqlari, ertaklari, latifalari, rivoyatlar va afsona-yu

¹¹ Saidmurod Panoh o’g’li. Odilxon II. Dostonlar, termalar. Yozib oluvchilar: Sh.Murodov, A.Umariy, M.Toshpo’latovalar. Kirish so’zi muallifi va nashrga tayyorlovchi T.Mirzaev. – Toshkent, 1972.

naqlarini yozib oldilar. Bulardan ayrim namunalar “O‘zbek xalq ijodi” ruknidagi ko‘p tomlikda va boshqa bir qator nashrlarda chop etildi. Bunda xalq afsonalari, rivoyatlari va ertaklarini to‘plash va nashr etishga e‘tibor birmuncha jonlandiki, buni M.Jo‘rayev ¹² va S.Umarovlarning ¹³ izlanuvchanliklari misolida yaqqolroq ko‘rish mumkin.

Buxoroda nasrning asotir, hikoyat, ertak, afsona, rivoyat, naql, latifa va og‘zaki drama hamda lof singari janrlari namunalari qadimdan keng tarqalgan. Binobarin, ularni yozib olish va kitobat qilish an‘anasi ham hali XIII asrdayoq Muhammad Avfiy Buxoriy (1176-1233) tomonidan boshlangan. Uning 1233 yilda fors-tojik tilida tartib berilgan “Javome‘ul hikoyot va lavome‘ur-rivoyot” (“Hikoyatlar majmui va rivoyatlar ziyosi”) asari shu yo‘nalishdagi ilk urinish mahsuli. Bu asarni mohir tilmoch Kibriyo Qahhorova o‘zbek tiliga o‘girib, 1977 yilda “Nodir hikoyalar” nomi bilan chop etgan edi. Aslida u bu asar tarjimasini ancha ilgari boshlagandi, o‘sha tarjimasidan ayrim namunalarni tanlab, dastlab Abul Faraj, Ubayd Zokoniyy va Faxriddin Ali Safiydan qilgan tarjimalari qatorida 1974 yilda “Ajoyib hangomalar” otlig‘ kitob tuzib e‘lon qilgan bo‘lsa, keyinchalik ularni yana bir nazardan o‘tkazib, 1983 yilda “Hikoyat va rivoyatlar” nomi ostida qayta chop qildi. Shuni ta‘kidlash joizki, buxoroliklar og‘zaki nasrining bunday namunalari tarixnavislar Muhammad Abu Bakr Narshaxiyning “Buxoro tarixi”, Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma”, Nisoriyning “Muzakkirul ahbob”, Mirzo Salimbekning “Kashko‘li Salimiy”, Sadr Ziyoning “Navodiri Ziyoiya” kabi asarlarida ham anchagina uchraydi. Ular bunday asarlarni folklorshunoslik manfaatlaridan kelib chiqqan holda yig‘maganlar, albatta, balki o‘z asarlaridagi u yoki bu voqeaning tasdig‘i yoinki bayonning ta‘sirchanligini kuchaytirish niyatida keltirganliklarini unutmaslik darkor. Shunga qaramay, bu dalillar buxoroliklar og‘zaki nasri namunalari yozib olish garchi stixiyali kechganini ko‘rsatsa-da,

¹² El desa Navoiyni... Xalq rivoyatlari (To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi M.Jo‘rayev). – Toshkent, 1991; Navro‘z. Navro‘z haqida xalq qo‘shiqlari, rivoyatlari (To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi T.Mirzaev va M.Jo‘rayev). – Toshkent, 1991; Ipak yo‘li afsonalari (To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi M.Jo‘rayev). – Toshkent, 1993.

¹³ O‘zbek xalq ertaklari (Qayta ishlab nashrga tayyorlovchi Subhonqul Umarov). – Toshkent, 1979.

har qalay o'ziga xos jarayon sifatida namoyon bo'lganini inkor etishga yo'l bermaydi. Faqat XX asrning 70-yillariga kelib buxoroliklar og'zaki nasri namunalarini yozib olish harakati izchil tus ola bordi. Bu sohada o'zbekistonlik S.Umarov, M.Jo'rayev va tojikistonlik S.Mahdiyev, R.Rahmonov singari folklorshunoslar izlanishlari samarali bo'ldi. S.Umarov Buxorodagi o'zbek ertaklari va rivoyatlarini, S.Mahdiyev Buxorodagi tojik latifalarini, R.Rahmonov esa Buxorodagi tojik ertaklari, afsonalari va rivoyatlarini yozib oldilar va o'rganishga kirishdilar. Natijada S.Umarov tartib bergan "O'zbek xalq ertaklari" (1970), R.Rahmonov tartib bergan Moskvada 1977 yilda rus tilidagi "Buxarskie skazki v zapisyax Ravshana Raxmona" hamda Dushanbeda 1998 yila tojik tilidagi "Ravshan Rahmon yozuvidagi Buxoro afsonalari, rivoyatlari va olqishlari" singari to'plamlar yuzaga keldi.

Buxoro og'zaki nasri namunalarini asliyatga mos qilib, tarixiy-milliy ruhiga putur etkazmay yozib olishda taniqli o'zbek folklorshunosi M.Jo'rayev ayrica g'ayrat ko'rsatdi. U shogirdi R.Saidova bilan hamkorlikda to'plab, 2004 yilda chop ettirishga muvaffaq bo'lgan "Buxoro afsonalari" hamda ushbu satrlar muallifi tomonidan to'planib, 2004 yilda nashr qilingan. "Shirinqishloq latifalari" to'plamlari buxoroliklar ijodkorligida keng tarqalgan asotir, afsona, naql, rivoyat va latifa kabi janrlarga mansub betakror namunalarni o'z ichiga olgani bilan e'tiborni tortadi.

Buxoro folklori turli xalqlarning o'zaro yondosh yashashlari tufayli yuzaga kelgan sintezlashgan san'at hodisasi. Shu bois uning talay namunalarida shiru shakarlik xususiyati seziladi. Shu xususiyat bilan ularni tojiklar ham, o'zbeklar ham aytib ketaverganlar va bunda til to'siqqa aylanmagan.

Buxoroning Qorako'l muzofotida XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrda yashab ijod etgan, ammo folklorshunoslikda hanuzgacha noma'lumligicha qolib kelayotgan chovlilik Umur shoir Vali o'g'li (1845-1916), Jumaqul Jumaniyoz o'g'li (1876-1962), Murod baxshi (1880-1952), Usta Amin baxshi (1892-1962), Ochil bobo Shomurod o'g'li (1886-1961), go'pposlik Farmon shoir

(1905-1978), xo'jakanapsalik Hojiyoqub baxshi (1850-1916), Shoniyozi baxshi (1870-1926), ziyoratlik Boboqul shoir (1911-1992), miroblik Boboqul ota Ergashev (1912-1991), qoraunlik Shomurod baxshi (1855-1912), Sattor baxshi Shomurod o'g'li (1878-1937), mirzaqal'alik Shoyimardonqul baxshi, poykandlik Suyar shoir, sayotlik Ma'mura momo Quliyeva (1920-1993) va Qamar momo Ziyoyeva (1928)larning nomini O.Safarov aniqlab, fanga ma'lum qildi. Olim tomonidan ular haqida "Qorako'llik kuychilar" risolasi e'lon qilindi.

O.Safarov yana Buxoro latifalaridan namunalar to'plab "Shirinqishloq latifalari" to'plamini e'lon qildi.¹⁴ Shuningdek, olim Buxoro vohasida keng tarqalgan bolalar allalari, aytim-olqishlari, erkalamalari, ovutmachochlari, qiziqmachochlari, tez aytishlari, chandishlari, guldur-guplari, tegishmachochlari, arazlamalari, yarashtirgichlari, masxaralamalari, o'yinlar va ularning debochalari sanaluvchi chorlamalar, cheklashmachochlar, sanamalar, tarqalmachochlar, bolalarning tabiatga munosabatidan tug'ilgan yalinchoqlar hukmlagichlargacha to'plab, o'rganib, o'zbek bolalar folklorining yaxlit bir tizim sifatida shakllangan mustaqil og'zaki adabiy hodisa ekanligini aniqladi. Shu kuzatishlari natijasini «Bolalarni erkalovchi o'zbek xalq qo'shiqlari» (1983) va "O'zbek bolalar poetik folklori" (1985) monografiyalarida umumlashtirdi. Shu sohada yiqqan materiallari asosida esa o'zbek bolalar folklorining ilk yirik nashrlarini amalga oshirdi. "Boychechak" (1984), "Alla-yo alla" (1991), "El suyarim, alla" (2009), "Tez aytishlar" (2010), "Chittigul" (O'zbek bolalar o'yin folklori,2010) ana shunday majmualar bo'lib, o'zbek bolalar folklorshunosligi tarixidagi dastlabki nashrlar sifatida qimmatli ilmiy va amaliy ahamiyatga ega¹⁵.

¹⁴ Safarov O.Qorako'llik kuychilar. – Toshkent,1994; Shirinqishloq latifalari. – Buxoro,1994.

¹⁵ Boychechak. Bolalar folklori (To'plovchi va nashrga tayyorlovchi O.Safarov).Toshkent, 1984; Alla-yoalla. O'zbek xalq allalari (To'plovchi va nashrga tayyorlovchi O.Safarov). - Toshkent: "O'qituvchi",1999; El suyarim, alla (To'plovchi va nashrga tayyorlovchi O.Safarov). Toshkent: "O'zbekiston", 2009; Chittigul. O'zbek bolalar xalq o'yinlari (To'plovchi va nashrga tayyorlovchi O.Safarov).Toshkent, 2010.

Buxoro folklorini to'plash, o'rganish va nashr etish ishlari istiqlol yillarida bir muncha jonlandi va izchillasha bordi. Xususan, Buxoro nikoh to'ylari va motam marosimlari folklorini o'rganishda samarali natijalarga erishilganligini ta'kidlash joiz. Bu silsilada O.Safarov va o'z shogirdlari D.O'rayeva, D.Narzullayeva, F.Hayitovalar bilan Buxoro nikoh to'ylariga xos salomnomaxonlik, tabular, jarlar, qizaloqlarning bahoriy o'yinlari, motam marosimiga xos yig'ilar, yo'qlovlar, o'lim allalari, o'lim yor-yorlari namunalarini yozib olishdi, ularning sara namunalari asosida "To'y muborak, yor-yor" (2000) va "Bo'zlardan uchgan g'azal-ay" (2004) to'plamlari tartib berildi, nashr etildi. Sanab o'tilgan janrlarning poetikasi nazariy jihatdan ishlab chiqildi, mazkur janrlar tabiatiga mos xususiyatlar oydinlashtirildi va umumlashtirildi. Shular misolida o'zbek folklorshunosligidagi kemtik nuqtalar to'ldirildi. Xususan, bu silsilada D.O'rayevaning o'zbek motam marosimi poetikasiga bag'ishlangan monografik tadqiqoti ayrica salmoq kasb etadi. Shu tariqa o'zbek marosim folklorining ochilmagan qirralari kashf etilib, marosimshunoslik ilmi ham boyitildi.¹⁶

Buxorolik folklorshunoslar g'ayrati bilan o'yin folklorini to'plash va tadqiq etish alohida yo'nalishga aylandi. Bu silsilada S.Avezovning "Sanama janri tabiati va badiiyati" (2008) va N.Safarovaning "O'zbek bolalar o'yin folklori tarkibi va badiiyati" (2008) monografiyalari ayrica ilmiy-amaliy qimmatga ega.

2010 yilda D.O'rayeva va D.Rajabovlar hamkorlikda "Buxor elda gul sayli" to'plamini e'lon qildilar.¹⁷

Xullas, Buxoro folklori o'ziga xos janriy tarkibi, lokal xususiyatlari bilan o'zbek folklorining boyishi va rivojlanishida samarali ta'sir ko'rsatgan qadimiy ma'naviyat sarchashmalaridan biridir.

¹⁶ O'rayeva D. O'zbek motam marosimi folklori. – Toshkent: Fan, 2004. – 120 b.

¹⁷ Buxor elda gul sayli. Buxoro xalq qo'shiqlari va termalari. To'plab, nashrga tayyorlovchilar, so'zboshi mualliflari: D.O'rayeva, D.Rajabov. – Toshkent: Ma'naviyat, 2010. – 176 b.

I.2. Buxoro folklorida qo'shiqchilik san'ati

Buxoro xalq qo'shiqlari badiiy jozibadorligi, fusunkor ohangdorligi, chuqur tarbiyaviy-ta'limiy mazmundorligi, betakror tashbehlarga yo'g'rilganligi va ramziy obrazlarga boyligi, zullisonaynligi bilan dillarga ezgulik tuyg'ularini baxsh etib kelmoqda. Turli janrlardan tarkib topgan Buxoro xalq qo'shiqlari o'ziga xos muhabbat qozona olgan. Bugungi kunda ularni yig'ish, o'rganish va yoyish jamiyatimiz ma'naviy boyligini qadrlashga barobar ishdir.

Buxoro xalq qo'shiqlari yaxlit tizim holida shakllangan bo'lib, shakliy xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ular janr mansubiyati, ijro maqsadi, o'rni va vazifasi jihatidan uch katta guruhga bo'linadi:

I. Marosimga aloqador xalq qo'shiqlari yoki marosim folklori. Bu mavsumiy, oilaviy – maishiy marosimlarga daxldor qo'shiqlarni o'z ichiga oladi.

II. Marosimga aloqasi bo'lmagan xalq qo'shiqlari yoki nomarosimiy folklor. O'z navbatida, bu guruhga mansub qo'shiqlar ham janriy shakli, ijro xususiyati va motivlari hamda ijtimoiy-estetik vazifasiga qarab to'rt ko'rinishda namoyon bo'luvchi mehnat qo'shiqlari, lirik qo'shiqlar, tarixiy qo'shiqlar va termalarni qamrab oladi.

III. Bolalar poetik folklori yoki bolalar qo'shiqlari.

Qo'shiq kishining ongi va hissiyotlariga ta'sir etish qudratiga ega. Chunki aksariyat qo'shiqlarda xalqning urf-odati, milliy an'analari, axloq normalari o'z aksini topgan. Shu vazifasiga binoan ular etnopedagogik qimmat kasb etadi.¹⁸

Xalq qo'shiqlarida voqelik garchi yakka shaxsning kechinmalari orqali aks ettirilsa-da, biroq bu kechinmalar ommaning, ko'pchilikning his-tuyg'ulari bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi.

Qo'shiqlar xalq ma'naviyatining, ijodkorining buyuk qudratini, mehnatkash omma irodasining bukilmazligini ifodalaydi. Kishilarni ruhan tetiklikka, jasoratga, mehnatsevarlikka, insonparvarlikka, do'stlikka va vafodorlikka chorlaydi.

¹⁸ Safarov O., O'rayeva D. O'zbek xalq qo'shiqlarida etnopedagogik qarashlarning ifodalanishi. – Buxoro davlat universiteti ilmiy axborotlari, 2003, 1-son. – B.14-21.

Shuni ham aytish kerakki, xalq qo'shiqlari turli joylarda turlicha ijro etiladi. Chunonchi, Farg'ona vodiysidagi qo'shiq ijrosi Buxorodagidan va o'z navbatida, Xorazmdagi qo'shiqlar bularning har ikkalasidan ham farq qiladi. Bu farq ularning ohangidagina emas, hatto obrazlar olamida ham seziladi. Qolaversa, Farg'ona qo'shiq ijrochiligida dutor va doira jo'rligi nisbatan faol bo'lsa, Buxoroda tanbur va doira, Xorazmda esa tor, garmon hamda doira shunday mavqega ega.

Hozirgacha Buxoro qo'shiqlari materiallari asosida O.Safarov, D.O'rayeva, D.Rajabov kabi taniqli buxorolik folklorshunoslar tashabbusi bilan "Boychechak", "Qorako'llik kuychilar", "Alla-yo alla", "To'y muborak, yor-yor", "Bo'zlardan uchgan g'azal-ay", "El suyarim, alla", "Buxor elda gul sayli" kabi bir necha yirik qo'shiq to'plamlari nashr qilingan. Ammo o'ziga xos ohangdordlikka va badiiy obrazlilikka ega Buxoro lirik qo'shiqlari to'plami haligacha mukammal holda nashr qilingan emas.

Buxoro qo'shiqlari ayrim o'ziga xos xususiyatlari, obrazlar tarkibi, tili bilan lokal belgi kasb etadi. Masalan:

Eshigingdan o'tayin,
Qiya-qiya yo'l solib.
Zar kalapo'sh tikayin,
Sharsharadan gul solib.

Qo'shiqda yorni qo'msab va sog'inib eshigidan o'tish hamda unga bag'ishlab zar kalapo'sh (do'ppi) tikish holati o'zaro teng keltirilmoqda. Shu orqali Buxoro zaminiga xos, azaliy hunarmandchilik san'ati – zardo'zlikka e'tibor qaratilmoqda. Darhaqiqat, Buxoro zardo'zlik san'ati paydo bo'lgan va rivojlangan qadimiy maskan bo'lib, u orqali Buxoroning dovrug'i yana bir bor ahonga tanilgan. Shu tarixiy voqelik qo'shiq mazmuniga mahorat bilan singdirilgan.

Buxoro xalq qo'shiqlarining aksariyati to'rtlik shaklida, etti, sakkiz, to'qqiz, o'n bir hijoli bo'lib, qofiyalanish tartibi ham g'oyat xilma-xildir:

Qo-shim qo-ra du-go-na, -7
O'-zim o'r-ta mi-yo-na. -7
Sev-ga-nim-ga tush-ma-dim, -7

Um-rim o't-di de-vo-na. -7

Yoki:

O-tam me-ni o-la-tog`-dan o-shir-di, -11

Gu-noh qil-may gul-siz boq-qa ya-shir-di. -11

Qil-gan gu-nom o-ta-o-nam bo'y-ni-ga, -11

So-lib qo'y-di no-ta-nish yor qo'y-ni-ga. -11

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Buxoro xalq qo'shiqlarining obrazlar olamida o'ziga xosliklar ko'zga tashlanadi. Jumladan, ularda Buxoro obrazi talmeh sifatida bo'rtib ko'rinadi yoki Buxoroga xos joy nomlari, narsalar, hayvonot va qushlar olami obrazlantirilishi kuzatiladi. Jumladan:

Buxoroning yo'llari ko'chama-ko'cha,

Qo'lingdagi baxmalning metri qancha?

Maydonlarda ishqing ketib yurgancha,

Opangni uxlatib kelaqol kecha.

Yoki:

Buxoro ko'chasi tor deb yig'layman,

Bo'ynimga munosib yor deb yig'layman.

Ko'hna Buxoro shahri ko'chalari juda tor bo'lgan. (Bu haqda taniqli adib Asqad Muxtorning "Buxoroning jin ko'chalari" qissasi ham bor.) Qo'shiqda shu hayotiy voqelikka ishora mavjud.

Ayrim qo'shiqlarda Buxoro viloyati hududidagi shahar va tumanlar obrazi talmeh sifatida keltirilganligi kuzatiladi:

Qorako'lning soziman,

Uchib turgan g'oziman.

Yoki:

Boshimga solibsani oyli ro'molni,

Labingga qo'yibsani no'xatdek xolni.

Vobkentda ko'rmasam, senday juvonni,

Savdoga qo'yaman bu shirin jonni.

Yana:

Buxoroda minora,
Shofirkonda chinora.

Buxoro qo'shiqlarida hududga aloqador tarixiy obidalar, mashhur tarixiy shaxslar, aziz avliyolar nomiga ham ishora seziladi:

O'n birda yorning kamoli,
Boshida ipak ro'moli,
Bo'ying *Buxoro minori*,
Ko'rgan aytar kimning yori.

D.O'rayeva va D.Rajabov shu qo'shiqni tahlil qilar ekanlar: "Ma'lumki, xalq she'riyatida va mumtoz poeziyada yorning qaddi-basti, asosan, sarvga qiyoslanishi o'ziga xos an'anaviylik kasb etgan. Ammo Buxoro xalq qo'shiqlarida shu an'anaviylikdan farqli o'laroq ma'shuqaning bo'y-basti, maftunkor qomati Buxoro minorasining husni bilan tenglashtirilishi kuzatiladi. Bu esa, Buxoro qo'shiqlarining o'ziga xos obrazlilikka egaligini ko'rsatadi", - deb yozadilar.¹⁹

Boshqa xalq qo'shiqlari singari Buxoro xalq qushiqdarida ham radif, alliteratsiya singari tasviriy vositalar g'oyat faol:

Sarigulning soyasida o'chog'i,
Sollonadi sochvog'ining munchog'i.

Alliteratsiya (bir xil tovushlar takrori) asosida yaratilgan ushbu misralarda "s" harfining ritmik takrorlanishi orqali betakror ohangdorlik va jozibadorlikka erishilgan.

Sarigulning soyasinda saralib yotdim,
Yaxshi yor axtarib, yomon yor topdim.

Bu misralarda yana tovushlar takrori (alliteratsiya)dan tashqari tazod (qarshilantirish) san'ati ham qo'shiq badiiyati va ohangdorligini kuchaytirishga xizmat qilayotir. Bu badiiy tasvir vositasi juda ko'p qo'shiqlarda keng uchraydi:

Olmaning oqidan ko'ki yaxshiroq,
Yorning yaqinidan uzog'i yaxshiroq.

¹⁹ O'rayeva, D.Rajabov. Buxoro xalq qo'shiqlarining to'planishi va o'rganilishi // Buxor elda gul sayli. Buxoro xalq qo'shiqlari va termalari. To'plab, nashrga tayyorlovchilar, so'zboshi mualliflari: D.O'rayeva, D.Rajabov. – Toshkent: Ma'naviyat, 2010. –B. 3-15.

Yaqin bo'lib behalovat bo'lguncha,

Uzoq yo'lning intizori yaxshiroq.

Buxoro qo'shiqlarining mavzular olami rang-barangdir. Ularda oshiq ko'ngilning rozlari, go'zal ma'shuqaning yoki mard va tanti oshiqning ta'rifi, bevafo yordan, qizining ko'ngliga qaramasdan uni erga bergan zolim otadan shikoyat, sevgisiz turmush va notenglikka asoslangan nikohdan norozilik, hijron dardlari, turmush qiyinchiliklari, bag'ritosh qaynonadan, o'gay onadan nolish, taqdirdan o'pkalash, mehnatga, tarixiy va maishiy voqea-hodisalarga axloqiy, satirik va yumoristik munosabat, farzand kamolotini tilash motivlari etakchilik qilishi kuzatiladi.

Ma'shuqa ta'rifiga bag'ishlangan qo'shiqlarda, asosan, yorning go'zalligi, maftunkorligi mubolag'ali tarzda bayon etiladi:

Eshik oldi yo'ng'ichqa,

Beling qildan ingichka.

Bizning yorni so'rasangiz ,

Endi kirdi o'n uchga.

Ko'hna va navqiron Buxoro zaminida ko'p asrlardan buyon o'zbeklar va tojiklar bir tanu bir jon bo'lib baqamti yashab kelayotir. Ular o'rtasidagi ruhiy yaqinlik, beg'araz birodarlik tufayli vohada o'ziga xos an'analar shakllangan. Bu an'analar har ikkala xalq uchun bir xilda teng xizmat qilib kelayotir. Shu an'analarning katta qismini folklor durdonalari tashkil etadi. Hatto ikkala xalqning yaqinligi Buxoro qo'shiqlari tili orqali ham seziladi:

Azaldan bor ekan, taqdiri ollo,

Gadoning jufti bo'ldi **duxtari shoh.**

Yoki:

Ey, nozanin, shahringga shahzoda tushibdi.

Amir kokiling, belingga to'lg'onib tushibdi.

Man ko'rganda labingda xoling yo'q edi,

Yak xoli siyo ruhingga jonona tushibdi.

Keltirilgan she'riy parchalarda tojikcha so'z va birikmalarning ishtirok etayotganligi xalqlararo yaqinlikning o'ziga xos badiiy ifodasidir.

Buxoro folklorida shunday janrlar yoki qo'shiqlar mavjudki, ularning ijrosi respublikamizning boshqa hududlarida yashovchi aholi o'rtasida kuzatilmaydi. “Yor-yor, yoroni”, “Ishimma” kabi qo'shiqlar, muxammaslar shular jumlasidandir. Binobarin, M.Jo'rayev “Oy oldida bir yulduz” to'plamida “Yor-yor, yoroni” qo'shiqlaridan namunalar berar ekan, u haqda: “Buxoro viloyatining Qorako'l, Olot tumanlarida, Turkmaniston Respublikasining Forob tumanida o'tkaziladigan nikoh to'yi marosimi folklorida mavjuddir” deb ko'rsatadi.²⁰

Muxammasxonlik – Buxoro to'ylariga xos azaliy an'analardan biri. U Buxoroning o'g'uz lahjasida so'zlovchi aholi yashaydigan hududlari (Olot, Qorako'l)dan tashqari hududlarida keng tarqalgan. Buxoro to'ylari, xususan, nikoh to'yining “Fotiha to'yi” bosqichi muxammasxonliksiz o'tmagan. Biroq Buxoro muxammasxonlik an'anasi haligacha to'plab, o'rganilmagan. Holbuki, ular Buxoro xalq qo'shiqchiligida o'ziga xos o'ringa ega.

Xullas, Buxoro xalq qo'shiqlari nafaqat badiiyati, ohangi, ijro xususiyati, uslubi va tili, balki janrlar tarkibi nuqtai nazaridan ham o'ziga xos lokallik kasb etadi.

²⁰ Oy oldida bir yulduz. O'zbek xalq marosimi qo'shiqlari. To'plab, nashrga tayyorlovchi, kirish so'zi va izohlar muallifi M. Jo'raev. T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. –B. 102.

IKKINCHI BOB

BUXORO TO'Y FOLKLORI TIZIMIDA MUXAMMASLARNING O'RNI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

II. 1. To'y muxammaslarining janriy tabiati va mavzuiy turlari

Buxoro to'y marosimi folklori janriy tarkibi rang-barang va o'ziga xos bo'lib, ma'lum tizimni tashkil qiladi. Bu tizimda muxammaslar alohida o'rin egallaydi. Ular boshqa qo'shiqlardan voqebandligi, o'ziga xos uzuq-uzuq kuyga ega bo'lishi hamda dialog shaklida ikki qo'shiqchi tomonidan ijro etilishi bilan ajralib turadi.

Muxammasxonlik ko'proq ayollar yig'inlarida aytilishi muayyan an'anaviylikka ega.

O.Safarov Buxoro muxammasxonligi xususida to'xtalar ekan, uning kelib chiqishini qadimiy "Buxorcha" kuy, raqs, qo'shiqlar bilan bog'laydi. Olimning fikricha, «Buxorcha» faqat xotin-qizlar ijrochiligida shakllangan bo'lsa, «Mavrigi» faqat erkaklar ijrochiligi va ijodkorligi mahsuli sifatida yuzaga kelgan. (Mavrigixonlar, asosan, hitori chopon yoki hitori yaktak kiyganlar.) «Buxorcha» ijrosida 6-8 sozanda, xonanda va raqqosa ishtirok etsa, «Mavrigi» ijrosini 4-7 xonanda va sozanda amalga oshirgan, shu yigitlardan biri, gohida biror bola ayol kiyimini kiyib raqsga tushgan. «Buxorcha» doira, nog'ora, qayroq, zangjo'rligida ijro etilsa, «Mavrigi» asosan, doira jo'rligida tomoshabinlarga peshkash qilingan.

«Buxorcha» ichkarida yashovchi xotin-qizlar bazmining qo'shiq kuylari sifatida turkumlashgan. Shu bois, unda ayol qalbining barcha to'lg'oqu navozishlari, dardi, alami, hasrati, sevgisi, iztiroblari, xullas, quvonchu tashvishlari ham kuy, ham qo'shiq, ham raqsning o'zaro omuxtaligida butun jozibasi bilan namoyon bo'lgan. Bu tarovatda Buxoro mohchehralarining bokiraligi bor. Bu tarovat Buxoro mohpaykarlarining asriy armonlaridan entikishlarga to'la. Bu

tarovatlar Buxoro obidalaridagi fusunkor koshinlarning ranglaridan jilo olgan... «Buxorcha» ana shunday serishva qo'shiq va kuylar tajassumidir.

«Buxorcha» nomi sharaflanayotgan sarzaminda shakllangan va shu mulkda «Mavrigi»dan qadimiyoq tarixga ega. Uning tarkibida tojikcha qo'shiqlar bilan birga o'zbekcha-tojikcha shiru-shakar xonishlar ham bor. Endilikda uni to'y-ma'rakalarda, xalq sayillarida ijro etishsa-da, hamon, asosan, ayollar ijrochiligi unda ustuvordir.

«Buxorcha» uch payt – qismdan iborat. Birinchi payti «O'lang», «Xoli orazi ruxsor» ashulalari bilan doira, qayroq va zang jo'rligida boshlanadi. Doiradast usul beradi, yakkaxon hofiza yoki hofiz yuqorida eslatilgan qo'shiqlarni kuylashga kirishadi, raqqosa qo'lida qayroq, bilagida zang jo'rnavozligida raqsga tushadi.

Shundan so'ng ikkinchi payt – qismga o'tiladi. Ikkinchi payt nog'ora jo'rligidagi raqs bilan boshlanadi. Bunda birinchi doiradast yakkaxon; peshxonlik qilib, asosiy zarblardan iborat usullarni berib turadi, nog'orachi va boshqa doiradastlar past ovozli usul berib, unga pasxon qilib, jo'r bo'lib turadilar.

Uchinchi payt – qism turkumning ayni avji va intihosi bo'lib, unda doira, nog'ora, qayroq va zang jo'rligida yakkaxon qo'shiq kuylaydi, qolgan sozandayu xonandalar pasxonlik – qo'shiq naqoratini kuylab, unga jo'rovozlik qiladilar. Ular to'ychi, to'y ishtirokchilari va to'y sababchilarini alqab navozish aytadilar, **muxammasxonlik qiladilar**, qo'g'irchoq (zocha) o'ynaydilar, ayol erkakcha kiyinib, hazil-mutoyibali raqsga tushadi. Nihoyat, oxirida bir necha doira, nog'ora, qayroq va zang jo'rligida turli usullardan iborat zarblar majmuasi ijro etilib, turkumni intihosiga etkazadilar.²¹

Taniqli folklorshunos Muzayyana Alaviya, Toshkent viloyatida, odatda, to'y marosimining *qiz o'yin* kechasi, qayliq o'yinda, unashtirilgan yigitlar qizlarga bayram va sayillarda *miyoncha* berganlarida, hasharlardagi ziyofatlarda, bir-biriga choy uzatganda cholg'usiz aytiladigan qo'shiqlar – bayt-g'azallar aytilgani haqida ma'lumot beradi.²²

²¹ Safarov O. Folklor – bebaho xazina. – Toshkent: Muharir, 2010. – B.131-132.

²² Alaviya M. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. – Toshkent: Fan, 1974. – B.120-122.

Avvallari lapardagiday yigit-qizlar bir joyda teng turib bir-birlari bilan betma-bet aytishgan, keyinchalik shahar hayotida xotin-qizlarning o'zlari biri yigit, biri qiz tilidan bayt aytgan. Bunday bayt-g'azallarda lirik mazmun, murakkab ruhiy holatlar tabiat dunyosi va hayot detallariga bog'langan holda aks ettiriladi. Ularning ijrosida umum talab qilgan, umuman she'riyatga xos odob saqlanadi. Masalan, lirik kayfiyat ham haddidan oshmasligi kerak. Lirik mazmunni ifodalashda tabiatdagi manzaraning roli kattadir. Turmush, tabiat hodisalarining, maishat, tirikchilikda ruy beradigan hollarning she'riy vosita bo'lib kelishi bayt-g'azalda ayniqsa muhimdir. Bundagi to'rtlik aksariyat voqeaband bo'lib, oshiq, ma'shuqalar obrazi yorqin gavdalanadi.

Muzayyana Alaviya Toshkent viloyati Pskent tumani Mo'minobod mahallalik Rasulmat qizi Kuydinisani Shodmon bog'bonning o'g'li Ortiqboyga berganda, uning *Qiz o'yin* kechasi qizlar, kelinlar bayt-g'azal aytishib, tongotar qilganlarida yozib olgan bayt-g'azallaridan bir necha namunalar keltiradi:

Yigit:

Oq gul bo'lsam, bog'ingda bitsam,
Qizil gul bo'lsam, chakkangda tursam,
O'qigan bo'lsam, daftarga bitsam,
Na mushkuldir sening ohingda o'tsam.

Qiz:

Oq gul novdasidir arg'uvoni,
Qizil gul novdasi oshiqning qoni.
Qizil gul tagiga borsam kularman,
Sizni jonu tanim birla sevarman,
Agar mendan o'zgaga bersangiz ko'ngil,
Bilib qo'ying yo'lingizda o'larman.

Yigit:

Chakkaga piyola qo'ysam to'lmadi,
Ey, yora, sizdan ishorat bo'lmadi,

Ey, yora, sizdan ishorat bo'lsa-yo,
O'ltirib turguncha holim qolmadi.

Qiz:

Sizni dedim, sizdan o'zga demadim,
O'zga qandu asal bersa emadim.
Tanimga tegmadi atlasdan o'zga,
Yodinga kelmadi bir sizdan o'zga.

Yigit:

Boshingdan o'rgulay, bo'ying bo'yimga,
Yiroq o'ltirmayin kelgin yonimga.
Boshimni qo'yayin tilla tizingga,
Tomosha aylayin oyda yuzingga.

Bayt-g`azal aytgan kishi qo'liga bir piyola choy olib turib aytadi. Bu choyni oluvchi ham bayt-g`azal aytib olishi shart, aks holda piyolani bermaydi. Bayt-g`azal topolmay qolsa, chala yoki buzib aytsa, jazo beradilar. Jazoning xillari ko'p. Masalan, bir ro'molchani bir necha marta qattiq tugib, echishga, yo esa bir kampirni opichib uch marta aylanishga, o'yinga tushib berishga majbur qiladilar. Piyolani to'ldirib, novvot solib bir yo'la simirib ichishga majbur qilish ham bor.

Bayt-g`azal ishq-muhabbat qo'shiqlaridan iborat bo'lib, sevishtanlarning bir-biriga bo'lgan muhabbati, mana shu muhabbat tufayli chekkan azoblari, muntazirlik, mushtoqlik, ahd-paymon, va'da, hijron, umuman, oshiq-ma'shuqlarning ichki kechinmalari o'z aksini topadi.

Bayt-g`azalga yozma adabiyot vakillarining she'rlari ham qo'shilib ketadi yoki yozma adabiyotdagi she'rlar ta'sirida yaratiladi:

Boqqa kirsam gul yotur shoxi bilan,
Yuragimga o'tni qo'ydi gul yaprog'i bilan.
Gulzorni sansiz na qilay, guluzorsan na qilay.
Boshida bir dasta gul, chamanda yorsiz na qilay.

Bayt-g`azal uzun, qisqa vaznda bo`lish bilan birga, bir baytdan ruboiy, murabba`, musaddas, musamman shaklida aytilishi mumkin. Bu aytuvchiga bog`liq bo`lib, go`yo ko`ngli to`lmay, mazmuni yaqin qo`shiqdan qo`shib yuboradi:

Daryoning ul yuzida ko`rdim yuzingni ul zamon,
Yuraginga o`t tushibdur do`zax o`tidin yomon,
Do`zax o`ti ichga tushsa, tutuni undan yomon,
Oshiqi dilxastaga qorong`idan oydin yomon.

Bayt-g`azal tariqasida aytiladigan qo`shiqlarning avvalgi satrlarida bo`lib o`tgan yoki yuz berayotgan voqea-hodisa qisqa tasvirlanib, lirik qahramonning kechinmalari birlashib, iztirobga solgan ham, qiyinchiliklardan qutqarib olgan ham mehribon yor ekani ifodalanadi. Shunday qo`shiqlar ham borki, ko`pincha aytuvchilar bir baytni biri aytsa, ikkinchi baytni boshqasi aytadi. Ba`zan doston, qissalardan parchalar ham qo`shilib ketadi:

Yorimni ko`rdim, devona bo`ldim,
Aqlu hushimdan begona bo`ldim,
Xalqi jahonga afsona bo`ldim,
Yorga etar kun bormi, yoronlar?

Piyoladagi choy sovib, oyoqlari, qo`llari tolib ketsa ham, maqsadini ayta olmay qolayotganday qo`shiq davom etaveradi.

Har damda o`rtar qoshning qarosi,
Bormu, yoronlar, ishqning davosi,
Hech kimga tushmasin iuuqning savdosi,
Yorga etar kun bormi, yoronlar?!
Devona qilgan shahlo ko`zingdir,
Parvona qilgan oydek yuzingdir,
Ovora qilgan shirin so`zingdir,
Yorga etar kun bormi, yoronlar?!

Bunday chechan aytuvchilar ko'p bo'lmay, ko'plarga tanilgan, to'ylarga ko'p qatori emas, alohida chaqirilgan. Hatto uzoq joyda bo'lsa ham imtiyozli oilalar to'ylariga chaqirib kelganlar. Bular faqat bayt-g'azal aytish emas, o'yinga ham tushib qo'shiq aytganlar. Biror kishining to'yini ta'riflasalar, shunday chechan qo'shiqchi, laparchi, g'azalchi, qiziqchi, xushovoz xotinlarning nomini qo'shib, falonchining to'yiga falonchi chechan keldi, deydilar. Toshkent atroflarida Hamzabonu, Anzirat, Buvijon kabi shunday chechan ayollar o'tgan. Shu o'rinda beixtiyor Buxoroda ham To'faxon, Oliyaxon, Gulchehraxon kabi mashhur muxammasxonlarni ko'pchilik tanigani va to'ylariga lutfan taklif qilishgani yodga keladi.

Doston, qissalardan ko'ngil dardlarining izhori, oshiqning boshidan kechirganlari, ma'shuqaning beparvoligi tasvirlangan o'rinlarni tanlaganlar, asar qahramoni bo'lgan oshiq-ma'shuqalarning nima qilarini bilmay, *jamoat*, *xaloyiq*, *yoronlar*, *do'stlar* deb ko'pga murojaati ifodalangan g'azal, muxammas, murabba'larni cholg'usiz ohang bilan aytganlar, lekin bunda choy olish-berish bo'lmagan bo'lsa ham bayt-g'azal deb ataganlar. «Birimda ko'rdim bir bekach», «Men seni sevdim qora ko'z», «Bu qora ko'zlaring ne tilar mendan», «Qaydan olding bu tar g'unchani» kabi qo'shiqlar cholg'u bilan aytilgan.

Bayt-g'azal aytishning ma'lum an'anasi bo'lib, bu hol qo'shiqlarda ham o'z ifodasini topgan.

Boshla desang, boshlayin, boshliq baytlar benavo,
Podsho taxtidan toysa, vaziri bo'lgay gado,
Barchalar sog'u salomat, mening dardim bedavo,
Yorning aytgan so'zi bo'lgay bu dardingga davo.

Bunda gap bayt-g'azal ustida bormoqda. Yorning aytgan so'zi, ya'ni bayt-g'azalda ijro etiladigan qo'shiqlar uning dardiga davo bo'ladi. Yuzaki qaraganda, birinchi va ikkinchi baytlar boshqa-boshqa ko'rinadi, aslida esa, mantiqan bir-biriga bog'lanadi. Voqeaband bayt-g'azallar ham anchagina bo'lib, ular ko'proq epik asarlardan olingan. Har bir band oxirida

takrorlanuvchi misra to'rtliklarni bog'lab turadi va ularga muntazamlilik beradi:

-Bozordan oldim yongoq,
Mingan oting arg'imoq,
Bizlarni qilding bedimoq,
Men seni suydim, qora ko'z.

-Bozordan oldim pista,
Qoshi, ko'zi payvasta,
Bizlarni qilding havasda,
Men seni sevdim, qora ko'z.

Bunday bayt-g'azallar ko'pdir. «Men seni sevdim, qora ko'z» qo'shig'i «Yusuf bilan Ahmad» dostoniga kirgan yoki «Yusuf bilan Ahmad» dostonidan olingan bo'lishi mumkin.

Demak, she'riyatni sevgan xalq turli marosimlar – xalq yig'ilgan to'y-hashamlarda, bog' sayil, qovun sayil, Navro'z kabi bayramlarda she'r, bayt-g'azal aytishib, ko'ngillaridagini izhor qilganlar, dardlashganlar. Bayt-g'azal aytish o'troq dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi aholi o'rtasida keng tarqalgan.

Bayt-g'azal tabiatiga, badiiy qurilishiga, ijro o'rni va maqsadiga e'tibor qaratar ekanmiz, beixtiyor ularning Buxoro muxammaslari bilan mohiyatan yaqinligi anglashiladi.

Buxoro xalq muxammaslari garchi yozma adabiyotdagi poetik janrlardan biri “muxammas”, ya'ni har bandi besh misradan iborat bo'lgan, a-a-a-a-a, b-b-b-b-a shaklida qofiyalanadigan, mustaqil va tazmin xarakterida yaratiladigan she'r shakli nomi bilan yuritilsa-da, unday emas. Ular shaklan uchlik, to'rtlik, beshlik, oltilik yoki undan ortiq misralarda ham uchrayveradi. Demak, Buxoro xalq muxammaslari “besh banddangina iborat qo'shiq turi” deya chegara qo'yib bo'lmaydi.

Xalq muxammasxonligi Samarqand tojiklari orasida ham keng tarqalgan. Ayni damda uning o'zbekcha namunalari ham mavjud.

Xalq muxammaslari uzun, qisqa vaznda bo'ladi. Ular ko'pchilikning orasida ikki va undan ortiq so'zga chechan ayollarning she'r musobaqasi ko'rinishida ijro qilinadi. Ba'zan davralarda ularga musiqa asbobi bilan boshqalar jo'r bo'lib turishadi.

Muxammasxonlar davra o'rtasiga chiqib, bir-birlariga yuzma-yuz tik turib, ehtirom va mulozamat bilan aytishishgan. Bunday aytimlarda piching, kinoya, kesatiq deyarli aralashmagan. Tomonlar bir-biriga qo'li ko'ksida murojaat qilib, odob saqlab, tabassum bilan she'riy mulozamat ko'rsatishgan.

Muxammas matnlari I shaxsdan II shaxsga lirik murojaat ko'rinishida yo'naltirilgan. I shaxsdan II shaxsga yo'naltirilayotgan muxammaslar mazmunida xohish-istak, ezgulik ko'zlash, alqash, e'tirof etish motivlari ustuvorlik qiladi. Ayollar tilida ko'p qo'llanadigan "Jonigdan aylanay", "Boshingdan o'rgulay", "Bo'ying bo'yimga" kabi jumlar ko'p uchraydi.

Muxammas aytishga chog'langan va chorlangan ayol javob aytishga hamisha shay turmog'i lozim. Agar u so'z topolmay qolsa, muxammasxonlikni chala qilgan, buzgan hisoblanadi. Unga davradagi ayollar biror engil jazo tayinlaydilar. Yuqorida aytilganidek, bunda jazoning xillari ko'p. Hozirda ko'pincha "engilgan" ayollar g'olib muxammasxonga pul berishadi.

Muxammasxonlar ko'pincha bir-birini ta'rif-tavsif qilishadi. Yoki bir-biriga ishq-muhabbat izhorini qilishadi. Bunday xarakterdagi muxammaslarda muntazirlik, yo'liga mushtoqlik g'oyalari aks etadi.

Muxammasxonlikda ba'zan taniqli shoirlarning she'rlaridan ham qo'shib yuborishadi. Yo bo'lmasa, bir muxammasni ikkinchi muxammas bilan ulab ketishadi. Shu tarzda uni uzun, davomli aytishga chog'lanadilar.

Muxammaslar badiiy kompozitsiyasida dastlab voqelik, undan keyin lirik qahramonning kechinmasi, so'ngra xulosa aytiladi. Xulosada muxammasxon o'zini iztirobga solgan ham, uni qiyinchiliklardan qutqargan

ham shu mehribon yor – do'st ekanini e'tirof etadi. Bu bilan “inson – insonga do'st” ekani, “Inson – insonning taftini olishi” ta'kidlab o'tiladi.

Muxammasxonlikda aytuvchilar navbatma-navbat aytishadi. Bunda bir baytni biri aytsa, ikkinchi baytni boshqa muxammasxon aytadi.

Muxammasxonlarning so'zga chechanligi ayollarni ham lol qoldirgan, ham zavqlantirgan. Ularga oddiy ayollar hamisha havas bilan qarashgan. Har bir hududning o'z muxammasxonlari bo'lgan. Albatta, ularning soni ko'p bo'lmagan. So'zga chechan muxammasxonlarni katta-yu yosh tanigan, hurmat qilgan. Ularni to'ylarga ko'p qatori emas, alohida chaqirishgan va muxammasxonlik qilib berishlarini taklif qilishgan.

Buxorolik To'faxon, Oliyaxon, Gulchehraxon kabi mashhur muxammasxonlar to'ylarga maxsus, pulini to'lab chaqirilgan. Ular to'ylarda muxammaslar aytib, to'y sohiblarini qutlashgan, el orasida ta'rifini keltirishgan. Yana ular o'yinga tushib, boshqalarni ham o'yinga taklif qilib, qo'shiqlar aytib, to'yning qiziqarli, jonli va fayzli, yodda qoladigan bo'lib o'tishida xizmat ko'rsatishgan. Hatto odamlar muxammasxonlar kelgan va qizg'in o'tgan bunday to'ylarni ancha vaqtga qadar eslab yurishgan. Shu tariqa muxammasxonlar el orasida tanila borgan. Bora-bora ularni boshqa mahallalarga ham taklif qilisha boshlashgan.

Odatda, muxammas aytishuvi jarayonida cholg'u ovozi berilmagan. Cholg'u ovozi bir muxammasxon muxammasini tugatib, ikkinchisi o'z muxammasini boshlashidan oldin jo'r qilingan.

Muxammas aytishning o'z tartib-qoidasi shakllangan. Uni dastlab yoshi katta ayol boshlab beradi. Yoshi kichikrog'i boshlovchiga mulozamat bilan so'zini davom ettiradi. Ijrochilarning qo'li ko'ksidan tushmaydi. Muxammasini tugatishi bilan bir-biriga yarim ta'zim qilib yo bosh egib qo'yishadi.

Muxammaslar matni, yuzaki qaraganda, bir-biri bilan mazmunan bog'lanmaganday, boshqa-boshqa kishi tomonidan aytilayotgani bois bir-

biri uchun begonaday tuyuladi. Lekin ular bir-biriga javob tariqasida aytilishi sabab, mantiqan ulanib ketadi.

Muxammaslarning bandlarida turli takrorlanuvchi misralar ko'p uchraydi. Shu kabi takrorlar ham ularni o'zaro bog'lab turadi. Masalan, bir muxammasxon "Bozordan oldim yong'oq" deb so'z boshlasa, ikkinchisi unga javob qaytarar ekan, "Bozordan oldim pista" deya gapini sherigining gapiga ulashga harakat qiladi. Bunda muxammasxonlarning yong'oq va pista obraziga tayanishlari bejizga emas. Ularning har ikkalasi ham ichi mag'zi shirin egulikdir. Lekin ular ichidagi mag'izni olib eyish uchun, avvalo, qalin po'chog'ini sindira olmoq lozim.

Yana e'tibor qilinsa, birinchi muxammasxon "yong'oq" obrazini, ikkinchisi "pista" obrazini tanlashi bilan birining katta gap qilmoqchi, ikkinchisining esa kichikroq bo'lsa-da, undan-da shirinroq gap aytmoqchi niyatida ekanligini ilg'ash mumkin.

Muxammaslar to'y marosimlarining tarkibiy qismi sifatida yashab kelmoqda. Barcha folklor janrlarining kelib chiqishi qatori muxammaslarning kelib chiqishiga ham asosiy sabab: qalbda uyg'ongan his-kechinmalarni ifodalash ehtiyojidir. Shuning uchun muxammaslar shunchaki oddiy so'zlardan tarkib topgan she'rlar emas, balki ular kishilarning qalbida uyg'ongan cheksiz his-tuyg'u va taassurotlarning badiiy bo'yoqdor ifodasidir. Muxammaslardagi har bir so'z, har bir obraz o'ziga xos ma'no-mazmun tashib keladi. Hayotiy ehtiyoj mahsuli sanalgan muxammaslar boshqa xalq she'rlari kabi ma'lum badiiy qonuniyatlarga asoslanadi.

Muxammaslarning o'z ijro o'rni, vaqti, spesifik xususiyatlari mavjud. Ular dialog ko'rinishidagi ijroga asoslanganligi bilan ajralib turadi.

Muxammaslarning asosida hayot va inson muammosi yotadi. Ular orqali hayotni qadrlash, mas'uliyat bilan umr kechirishni tushunish, o'zidan yaxshi nom qoldirishga, ezgu amallar bilan yashashga intilish g'oyasi targ'ib etiladi. Shuning uchun ular insonlarga ruhiy-estetik ta'sir ko'rsatadi. Ularda pand-o'git yorqin aks etadi.

Marosimlarni o'tkazish bilan bog'liq jonli an'ananing saqlanganligi muxammaslarning yashovchanligini ta'minlagan muhim omildir.

Muxammaslar xalqning yuksak orzu-intilishlarini o'ziga singdirib, badiiy sayqal topib, to shungacha yashab kelmoqda. Ularga xos ohangdorlik, badiiy ta'sirchanlik kishilarga har tomonlama estetik kuch ko'rsatadi.

Muxammaslar marosim bilan bog'liq an'ana sifatida ba'zan islomiy g'oyalarni o'zida ifoda etib, axloqiy-ta'limiy mazmundorlik kasb etadi.

Muxammaslar aytuvchining badihago'ylik salohiyati, voqelikka munosabatiga bog'liq holda turlicha matnga va hajmga ega bo'lishi mumkin. Shuningdek, yor-yor, kelinsalomlar ijrochiligidan farqli o'laroq, bu aytimlar ijrosi maxsus tayyorgarlikni talab qilmaydi. Bunday aytimlarning ijrosiga xos yana bir xususiyat – ijro jarayonida qat'iy bir tartibga rioya qilinishidir.

Muxammas aytimlari o'ziga xos poetik sistemaga ega bo'lib, marosim bilan genetik va funksional jihatlardan uzviy bog'liq. Ular, odatda, barmoq vaznida yaratilib, samimiy tilaklar izhoridan iborat bo'ladi. Bu jihatdan ularda olqishga xos motiv etakchilik qiladi.

Xulosa qilib aytganda, muxammas aytimlari marosimga uzviy bog'liq holda o'ziga xos ijro xususiyatiga ega. Buxoro ahli o'zining turli marosimlarida – to'y-hashamlarida, sayil va bayramlarida muxammasxonlik qilib, bir-birilariga ko'ngillaridagi ezgu hislarni izhor qilganlar, dardlashganlar. Ana shu ezgulikka yo'g'rilgani jihatidan ular bizgacha saqlanib kelmoqda.

II. 2. To'y muxammaslarining badiiy-kompozitsion qurilishi va tili

Buxoro xalq muxammasxonligida to'y muxammaslari alohida o'rin tutadi. Ularning aksariyati to'ychilarning ta'rif-tavsifiga, madhiga bag'ishlanadi. Bu esa muxammaslarning eng asosiy belgilaridan biri bo'lib hisoblanadi.

E shahzoda yigit, belingga tasma,
Gulzorga kirib, gulni emas, mug'jani uzma.

Oq qog`ozga chizib suratim, shamolga berma,
Toshkanga borib, mani unutma.

Ushbu muxammas oshiqni ogohlantirish, uni ishq yo'lida mas'uliyatli bo'lishga undash nasihati ko'rinishida yaratilganligi jihatidan ajralib turadi. Chunki ishqda mas'uliyatlilik, sevishganlarning bir-biriga vafosi va sadoqati oila hayotida muhim ahamiyatga ega. Shuni nazarda tutib, nikoh to'yi qo'shiqlarida bunga ishora qiluvchi yuqoridagi kabi qo'shiqlar muxammasxonlar tomonidan kuylangan. Jumladan, quyidagi muxammasda ham shu g`oya mujassam:

Ko'kkina ko'ylak kiyibsiz,
Ko'k tikonlar kirmasin.
Men sizga oshiq bo'libman,
Do'stu dushman bilmasin.
Do'sti-dushman bilsa-bilsin,
Va'da yolg'on bo'lmasin.
Va'dadan qaytgan kishi
Aslo musulmon bo'lmasin.

Muxammaslar kimga qaratilgan bo'lsa, o'sha insonning fe'l-atvoriga, kiygan kiyimi rangiga, ko'ylagining bezaklariga, qimmatbaholigiga yoki uning xarakter-fazilatlari, go'zalligi ta'rif-tavsifiga bag'ishlanadi:

Qora ko'z, ko'zing suzilsin,
Ustingga jonlar uzilsin.
Bir fasl turgin, qora ko'z,
Bo'lmasa, maylis buzilsin.

Ayrim muxammaslarning dastlabki ikki misrasini takrorlash orqali uning boshqa varianti yaratilganligi ham kuzatiladi. Masalan:

Eshiging oldidan o'tdim,
Gul ochildi xayolimga.
Boloyi qomating
Hech qachon xam bo'lmasin,
Bu jonimga u

Aslo dard bo'lmasin.

Yana bir varianti:

Eshiging tagidan o'tdim,
Gul ochildi xayolimga.
Uribsan mushti anbarni,
Isi urdi dimog'imga.

Bu misralar xalq tilida yaratilgani uchun unda “-da” o'rin-payt kelishigining o'rnida “-ga” jo'nalish kelishigi qo'llanilgan. Yana unda “eshiging yonidan” deyish o'rnida “eshiging tagidan” so'zi qo'llanilgan. “Mushti ambar” – xushbo'y hidli suyuqlik, atir bo'lib, u ustga sepiladi. Qo'shiqda esa bu holatni tasvirlash uchun “sepmoq” so'zi o'rnida “urmoq” fe'li qo'llanmoqdaki, bu o'ziga xos uslubiy g'alizlikni hosil qilishiga qaramay, xalq tilida qo'pol xatolik bo'lib ko'rinmaydi.

Eshigingdan o'tar bo'ldim,
Bir dasta gul – ochilibsan xayolimda.
Uribsan mushki anbarni,
Isi urdi dimog'imga.
Xudoyim bir karam qilsa,
Sani olsam quchog'imga.
Qo'lim tashlab gardaningga,
Arzim aytsam qulog'ingga.

Bu qo'shiq ham yuqoridagi qo'shiq variantlariga o'xshaydi. Uning birinchi misrasida ko'makchi qo'llanmagan.

Samarqandlik 57 yoshli, millati tojik bo'lgan fuqaro Gultoji Norovadan o'tgan asrning 80-yillarida talaba Shuhrat Mirzayev yozib olgan yuqoridagi muxammaslarda o'zbekcha gap qurilishi va unda so'zlarni qo'llashga tojik tilining o'ziga xos ta'sirini kuzatish mumkin. Xuddi shunday, Gultoji Norova og'zidan yozib olingan quyidagi muxammas ham garchi o'zbekcha bo'lsa-da, unda tojikcha so'zlar ko'proq qo'llanganiga shohid bo'lish mumkin:

Kalapo'sh kiyganingga man tasadduq,
Bozi gardoning jonimga ursin.

Qiqirlab kulganingga dushmanlar o'lsin.

Sani tuqqan onang maqsadga etsin.

Ushbu muxammasdagi kallapo'sh, bozi gardon, jon, dushman so'zlari tojikcha, tasadduq, maqsad so'zlari esa arabcha hisoblanadi. Yana mazkur muxammasning qofiyalanishi alohida e'tiborni tortadi. Unda birinchi misradan tashqari barcha misralar ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi misralar o'zaro qofiyalanib, ohangdoshlik hosil qilgan.

Gultoji Norova og`zidan tojikcha muxammaslar ham yozib olingan:

Az dar daroyike nigohi tu kunam man,
Andisha ba chashmonu siyoyi tu kunam man.
Man mol nadoramki, zakoti tu kunam,
Yak jonu aziz doram, qurbonu tu kunam.
Yoki:
A dar daroyi a sarat megardam man,
Yak jo'ra kitobi bag`alat megardam man.
Da peshka xonem shishta chi xush mexondet
A komi zuboni bulbulat megardam man.

Shiru shakar, ya'ni ikki til – o'zbekcha hamda tojikcha so'zlarni yonma-yon qo'llash orqali yaratilgan muxammaslar ham uchraydi:

Gul – shimo, bulbul – shimo,
Ra'no – shimo, zebo – shimo.
Etti olam a'losi-yu,
Durri yagonasi shimo.

Ko'rinyaptiki, ushbu to'rtlikning dastlabki ikki misrasi tojikcha, keyingi ikki misrasi esa o'zbekchada yaratilgan. Bunday she'r shakli adabiyotda "shiru shakar" deyilishi ma'lum.

Ko'pincha muxammaslar dialog shaklida aytilishi bois birinchi muxammasxon qo'llagan obrazni ikkinchi muxammasxon ham qo'llab, shu tariqa unga javob aytishi mumkin:

1-muxammasxon:

Qoshingni(ng) qorasini savlati bor,
Seni olgan yigitni(ng) davlati bor.
Seni olgan yigit: “Oldim”, - deyarmu,
Qo’lingdan choy ichib, “To’ydim”, - deyarmu.

2-muxammasxon:

Qoshingning qorasi yagonalarga,
Ko’zing termulmasin begonalarga.
Ko’zing termulgani uvol emasmu?
Meni(ng) jonim senga qurbon emasmu?

Har ikkala muxammasxon “qoshingni(ng) qorasi” birikmasini tayans so’z sifatida olishgan.

Uzoqdan kelishing eranilarday,
Ko’zinga ko’rinasan begonalarday.
Ko’zinga ko’rinishing o’bol emasmu?
Mani jonim senga qurbon emasmu?

Eran – homiy aziz avliyolar ruhi demak. O’bol – uvol degani.

Siyo dona siyo xolat shavam man,
Asiri qadi shamshodat shavam man.
Az kadam xona ovozi Oliyaxon buroyad,
Man balogardoni Oliyaxon shavam man.

Oliyaxon – Fotiha to’ylarida muxammasxonlik qilib, buxorolik ayllar mehrini va e’tiborini qozongan raqqosa va ashulaxonlardan biri. U badihago’ylik asosida muxammasxonlik qilib, davralarni qizitgan. Hozirjavob ayollar bilan she’r tortishuvi, she’riy musobaqa qilgan. Ayollar muxammasxonlarni qurshab, olqishlab turishgan. Doirachi ularni muxammas ohanggiga moslab, qo’llab-quvvatlab turgan. Muxammasxonlik buxorolik ayollar yig’inining eng kulminatsion nuqtasi sanalgan.

Baland tog` ustida bir qizni ko’rdim,
O’zi huru, labi qirmizni ko’rdim.
Jadallab bordim, man so’z aytay deb,

Uyquda bo'lsa agar uyg'otay deb.
Ul pari parvo qilmay, qiyo boqmadi,
Holing ne deb, bir so'z aytmadi.

Muxammas aytishuvida aytilgan bayt javobsiz, e'tiborsiz qolmasligi shart hisoblanadi. Yuqoridagi kabi muxammaslar aynan shunday ahvol yuz bersa, aytiladi. Unda "baland tog` ustida turgan qiz" obrazi viqorli, kekkaygan, o'zini baland olib, o'zgalarni nazariga ilmagan insonga kinoyani namoyon etmoqda.

Ta'kidlanganidek, muxammaslarda murojaat qilinayotgan insonning ta'rif-tasifini keltirish alohida o'rin tutadi. Hatto ba'zi holatlarda doston va ertaklardagi pari qizlarni, malika va kanizlarni saj' orqali tasvirlash holatiga o'xshashlik kuzatiladi:

O'zing oqcha, $2+2=4$
Labing g'uncha. $2+2=4$
Beling tolday ximcha. $2+2+2=6$
Beraydiganing bir ro'molcha, $5+1+3=9$
Mani kuydirmagil buncha. $2+4+2=7$

Ko'rinyaptiki, bu misralardagi bo'g'inlar soni har xil esa-da, undagi oqcha//g'uncha//ximcha//ro'molcha//buncha so'zlarining ohangdoshligi mazkur saktalikni yopib yubormoqda. Undagi ta'rif bevosita "Ravshan" dostoni bosh qahramoni Zulxumorning kanizi Oqchani yoxud "Rustamxon" dostoni bosh qahramonlaridan biri, Rustamxonning onasi malika Huroyimning kanizi Ximchaning tavsifini yodga soladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, xalq epik she'riyati an'analari muxammaslar badiiy taraqqiyotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatagan.

Eshikdan qarasam bir qaddi shamshod o'tirur,
Qoshlari qiygan qalamdak bir parizod o'ltirur.
Pista sig'mas og'zi bor-u, balki nodon o'lturur.

Bu muxammas misralari ham bevosita ertak va dostonlardagi pari va malikalar go'zalligini yodga soladi. Qolaversa, unda qo'llangan "parizod" so'zi yanada fikrimizga dalil bo'la oladi. Muxammasda "pista sig'mas og'ziga" misrasi mubolag'a bo'lib, u orqali ayolning nihoyatda nozik va go'zalligiga ishora

qilinmoqda. Biroq muxammasxonlikda ayol har qancha go'zal bo'lmasin, so'zga so'z topib ayta olmasa, so'zga chechanligini, aqlu farosatini namoyon qila bilmasa, baribir kamsitiladi. Yuqoridagi misrada ta'kidlanganidek, unga nisbatan "nodon" so'zi ishlatilaveradi.

Yuzingni o'xshatdim osmonda oyga,
Qoshingni o'xshatdim egilgan yoyga.
Jasading o'xshatdim bo'z qarchig'ayga,
Savlatimg o'xshatdim ming qo'yli boyga.

Ushbu muxammas misralari ham bevosita doston qahramonlarining epik tavsifini yodga soladi. Demak, muxammasxonlar o'zlari tinglagan, bilgan, qulog'ida qolgan doston misralaridan baytlar olib, unga improvizatsion holatda yondashib, misralar tizib kuylashlari mumkin, degan xulosani bildirsa bo'ladi.

Ko'ylaging bordir tizangdan,
Quvladim yurgan izingdan.
Bo'sa bir ber oq yuzingdan.

Muxammaslarda muxammas qaratilgan kishining nafaqat yuz chiroyi, qosh-ko'zi, lab-dahani, go'zal qaddi-qomati, nuktadonligi, turish-turmushi, balki kiyinishiga ham e'tibor qaratiladi. Jumladan, yuqoridagi muxammas kalta ko'ylak kiygan ayolga qaratilganligi sezilib turibdi. Odatda, o'zbek ayollari ko'ylakni tizzadan yuqori kiyishmaydi. Buni o'zlari uchun uyat hisoblashadi. Ko'ylakning tizzadan yuqori bo'lishi engiltaklikka yo'yiladi. Ayniqsa, ko'pchilik yig'iladigan davralarda bunday ko'ylak kiyishni o'zbek ayollari o'zlariga ep bilishmaydi. Shundan kelib chiqib, yuqoridagi muxammas matnida tizzasidan yuqori, kalta ko'ylak kiygan ayolga tegajog'lik qilinayotgani anglashilmoqda.

Shom bo'lsa, shoterakda yotasan.
Arzi dodingni xudoyimga aytasan.
Arzi dodingni xudoyim eshitmasa,
Chor tomondan intizorlik tortasan.

Bu kabi muxammaslar ko'pchilik yig'ilgan davralarda kuylanayotgan muxammasiga dardini qo'shib kuylagan ayollarga qarata aytiladi. Negaki, o'zbek

ayollari ko'p hollarda dardini, oilasi sirini ko'chaga olib chiqishdan o'zlarini tiyishadi. Agar o'z dardini to'y muxammasiga qo'shib kuylagan ayollar uchrasa, ularga javoban yuqoridagi kabi "Arzi dodingni xudoga ayt, bandasiga emas" degan ma'noda o'git aytiladi.

Ba'zan muxammasxonlar bir-biriga shirin choy yoki sharbat tutib, muxammasxonlik qilishgan. Quyidagi muxammas matni bevosita shu holatni o'zida namoyon eta oladi:

Birovga pista darkormi?

Birovga mag`zi halvo.

Asal, parvarda deb so'rdim,

Lablaring bo'lgay davo.

Ayrim muxammaslarda bu holat may obrazi bilan bog'lanib ketgani kuzatiladi:

Shaftoli pishibdi:

Payvand qilaylik tol bilan,

Soyasiga o'tiraylik, yor bilan.

Chinni kosa to'lib tursin may bilan,

Oling, oling deb ichaylik,

Suyukli dildor bilan.

Muxammaslarni tom ma'nodagi mehr baytlari deyish mumkin. Ular orqali insonlar bir-biriga cheksiz mehr-muhabbatini izhor etadilar. Bir-birlariga nisbatan fido bo'lish darajasida ekanliklarini, g'amxo'r va jonbozliklarini bildirib o'tishadi. Jumladan:

Eshigim oldidan o'tding oy bo'lib,

Kovushingga yopishay man loy bo'lib.

Kelaver, jonim joningdan aylansin,

Bosgan qadamingdan o'zim aylanay.

Bu misralardagi "kovushingga loy bo'lay", "joningdan jonim aylansin", "Bosgan qadamingdan aylanay" singari jumlar olqish ma'nosida bo'lib, cheksiz

g`amxo`rlik nishonasidir. Shuningdek, bu kabi mehribonlik va fidoyilik ohanglari muxammaslarning tojikcha variantlarida ham uchraydi:

Yak muxammas mexonam
Az joni dil dar nomaton.
Sad hazor marta shavad
Joni dilam qurbonaton.
Dar miyoni xushro`y ho sad
Doddu voh az dastaton.
Geri ishq man rasidu
Garm shud bozoraton.

Umuman aytganda, muxammaslarda insoniy kechinmalar bo`rtib turadi. Ularning ayrimlarida insonga xos uyatchanlik, tortinchoqlik, andishalilik, so`zda ayash holatlari haqida kuylangani kuzatiladi:

Gulzor havosi shirin,
Bulbul navosi shirin.
Qarolmayman yuzingga,
Dilda ishqing yashirin.

Muxammaslarda xalqimizning o`ziga xos maishiy turmush tarzi bilan bog`liq real voqealar ifodasi kuzatiladi. Ularda, real voqeliklar badiiy shaklda ifoda etilishi diqqatni tortadi. Shuningdek, muxammaslarda xalq epik ijodi va an`anaviy xalq she`riyati motivlari, obrazlari etnografik-arxeologik asosga ega tushunchalar bilan bir qatorda yozma mumtoz lirikasi an`analari: aruz vazniga xos ohang, ya`ni misralardagi hijolarning uzun-qisqaligi, masnaviy yoki muxammasga xos qofiya tizimi, radif kabi alomatlar ham uchraydi.

O`shal kun sanga, ey sho`xi suman, barimta bo`ldim,
Jamolingni ko`ray deb, orzu birla ado bo`ldim.
Ba bozori muhabbat gavhari qimmatbaho erdim,
Rohiblar suygan misli sadafday qimmatbaho erdim.
Qalandarday bo`b ovozim navo-yu nolalar qilib,
Sani dardu g`amingdan , ey pari paykar, ado bo`ldim.

Agar yuqorida ta’kidlangan xususiyatlar asosida misol keltirilayotgan ushbu lirik parchaga nazar solinsa, unda aruz vazniga xos ohangni, a-a shaklidagi masnaviy qofiya qurilishini kuzatish mumkin. Qolaversa, unda uchraydigan “barimta” so’zi – eski o’zbek tilida “garovga olingan” ma’nosini anglatadi. Shuningdek, unda yana “o’sha” ko’rsatish olmoshining eski o’zbek tilida qo’llangani kabi “o’shal” tarzida, “bilan ko’makchisini “birla” ko’rinishida, “edim” to’liqsiz fe’lini “erdim” holatida, “bo’lib” ravishdoshini “bo’b” tarzida qo’llanayotgani ushbu lirik parcha ohangini va ko’rinishini, ruhini va tuzilishini mumtoz she’rlar ko’rinishiga yaqinlashtirmoqda. Bundan tashqari unda yana qo’llanayotgan “sho’xi suman”, “ey pari paykar” singari lirik murojaatlar ham mumtoz she’riyat ohangini yodga soladi. Qo’shiq ritmi va ohangini, ko’rinishini mumtoz an’analarga yaqinlashtirishda undagi “Ba bozori muhabbat”, “gavhari qimmatbaho”, misli sadaf kabi izofali birikmalarning ham o’rni katta bo’lmoqda. Umuman aytganda, xalq muxammasxonligida shu tarzda mumtoz lirikasi an’analari uchrashini asoslab ko’rsatish mumkin.

Shuni aytish kerakki, muxammaslarni boshqa xalq qo’shiqlaridan ajratib turuvchi eng muhim belgilardan biri: ularda lirik murojaatning bo’rtib turishidir. Masalan:

Sunbul sochingni yoza kel sayli bog`a, dilbar,
Anbar isingni har dam etkur dimog`a, dilbar.
Nozu karashma bilan kelgin quchog`a, dilbar,
Rahm ayla san manga, dog` uzra dog`a, dilbar.

Ko’rinadiki, ushbu lirik parchada “dilbar” murojaati o’ziga xos e’tiborni tortmoqda, lekin qo’shiqni usiz ham aytish mumkinki, bu bilan qo’shiqning mazmuniga va ohangiga jiddiy zarar etmaydi. Jumladan:

Sunbul sochingni yoza kel sayli bog`a,
Anbar isingni har dam etkur dimog`a,
Nozu karashma bilan kelgin quchog`a,
Rahm ayla san manga, dog` uzra dog`a.

Bundan shuni anglasa bo'ladiki, demak, lirik qo'shiqlarga lirik murojaatni anglatuvchi so'z va birikmalarni qo'shgan holda muxammas sifatida ham kuylash mumkin.

Buxoro viloyati Shofirkon tumani Tezguzar qishlog'ida istiqomat qilgan Maxfirat buvidan yozib olingan bir muxammas ritorik so'roq, ya'ni tajohuli orifona san'ati asosida yaratilgani bilan e'tiborni tortadi:

San qachon gul deb yubording,
Man sanga gul bermadim?
San qachon shahzoda bo'lding,
Man sanga qul bo'lmadim?

Muxammaslar poetikasi juda boy. Ular nozik istiora va ramzlarga boyligi bilan to'y folklori janrlari orasida alohida ajralib turadi:

Yoqasiga gul taqib,
Gul misoli yonadur.
Lablari aqiqqa o'xshar,
Tishlari durdonadur.
Ikki zulfi oy yuziga
Doimo parvonadur,
Suratin ko'rgan kishilar
Ikki jahon overadur.

Qo'shiqda suyukli yor nozikligi jihatidan gulga, uning qip-qizil lablari qimmatbaho aqiqqa, tishlari durga, ikki zulfi qo'riqbonga, yuzi oyga, umuman, afsona va ertaklardagi pari paykarlarga o'xshatilmoqda. Shuning uchun bunday yorga oshiq bo'lgan inson ikki jahon overasiga aylanishi ta'kidlanmoqda.

Muxammaslar faqat to'ylarda emas, turli yig'in marosimlarida ham aytilgan. Ularda asosiy maqsad so'zdagi "raqib"ini ta'riflash, unga yaxshi tilak bildirish, ayni paytda, aytishuvda g'olib chiqish hamdir:

Asli qoshing qoradur,
O'sma qo'yganing yodg'on.
Saning uchun man kuydim,

Saning kuyganing yolg'on.

Muxammaslarning tematik doirasi kengdir. Ularning aytishuvi ba'zan sho'x-shodon qiyqiriqlar oqimida quvnoq hazilkashlikka aylanadi, bunda ayrim hollarda quyushqondan chiqib ketishganini sezmay qolishadi. Ikki kishi o'rtasida hozirjavoblik bilan aytishuv shaklida aytish, fikrga fikrni she'riy yo'sinda ulab ketish muxammas janrining etakchi xususiyati sanaladi.

Shuni ham qayd qilmoq kerakki, muxammas aytimlarida lirizmning u qadar rivojlanmaganligi, epiklik, ya'ni bayonning ustunligi, boshqacha qilib aytganda, estetik funksiyaga qaraganda informativ funksiyaning etakchi rol o'ynashi kuzatiladi. Ularning ko'pchiligida saj' ustuvor bo'lib, bu, o'z navbatida, ravonlik, ohangdorlikni ta'minlashga xizmat qilgan.

UMUMIY XULOSALAR

1. O'zbek xalq to'y marosimi qadimdan juda ko'p an'ana va udumlardan tashkil topgan, uning xilma-xil ko'rinishlari kundalik hayotda hozir ham mavjud. To'y muxammasxonligi ham shunday an'analardan biridir. Ko'pincha Buxoro nikoh to'ylariga xos bu ajoyib an'anada to'yga yig'ilgan ayollar, qarindoshlar o'zaro *muxammasxonlik* qilishadi yoki *bayt barak* aytishadi.

2. O'zbek to'ylarining o'ziga xos uzvlaridan biri darajasiga ko'tarilgan muxammasxonlik an'anasini mazmunan boyligi, teranligi, o'tkazish tartibi va maqsadi, ijro o'rni va xususiyatlari, ijrochilariga ko'ra ajralib turadi.

3. To'y muxammaslarida ajdodlarimizning turmush tarzi, orzu-tilaklari, yaxshilik va ezgulik haqidagi qarashlari, odob-axloq, mehr-oqibat bilan chambarchas bog'liq tasavvurlari to'la mujassamlashgan bo'ladiki, bular xalq pedagogikasining asosini tashkil etadi. Bu o'rinda, birgina, "Nikoh to'yi"ning "Fotiha to'yi" uzvida ijro qilinadigan muxammaslarni ko'z oldimizga keltirish kifoya.

4. To'yda ijro etiladigan muxammaslar – baytu barak aytishuv qo'shiqlari xalq badiiy tafakkurining eng nozik qirralarini o'zida to'la aks ettirgan milliy va ma'naviy qadriyatlar sirasiga kiradi. To'y marosimining ajralmas tarkibiy qismiga aylangan folklor janrlaridan biri hisoblanadi. Bu janrga mansub namunalar xalq ijodi tarixi, badiiy tafakkur taraqqiyoti, madaniyati, san'ati, qadriyati va etnografiyasi haqida ajoyib ma'lumotlar beruvchi qomusiy manbalardan biridir.

5. Fotiha to'yi – ikki yoshning boshini qovushtiradigan, kelajakda birga yashash uchun bir yostiqa bosh qo'yadigan, umrbod bir-birlariga mehr-muhabbat berib, naslni davom ettirishday ahdu paymonga ko'pchilik oldida muhr bosiladigan kun hodisasi. Nikoh kechasi har bir yoshning hayotida o'chmas iz qoldiradi. Har bir xonadon hayoti va tarixidagi benihoya xursandchilik bo'ladigan bu muqaddas kunda uzoq-yaqindan kelgan insonlar bir-birlari bilan ko'rishadi, diydorlashadi. Ular bir-birlaridan hol-ahvol so'rab, ko'ngiltortar suhbatlar qurishadi. Ikki yosh

baxtiga duo-olqishlar aytishadi. Muxammaslar kuylab, bir-birlariga lutf ko'rsatishadi. Shu ma'noda, muxammaslar – lutf qo'shiqlaridir.

6. Muxammasxonlik – xalq she'riyatining bir ko'rinishi. Uning ijrosidan ko'zlanadigan asosiy maqsad so'zda musobaqalashishdan iborat. Qolaversa, muxammasxonlik bahonasida insonlar bir-birlariga she'riy lutf ko'rsatib, ezgu tilaklarini izhor qilishadi.

7. Muxammasxonlikda, odatda, keksa so'zga chechan onaxonlar-u badihago'y ayollar ishtirok etishadi. Ular nom qozongan muxammasxonlar bilan ko'pchilik oldida bahslashishga chiqishadi. Shu ma'noda muxammasxonlik ayollarning she'riy shakldagi so'zga chechanlik musobaqasi sanaladi.

8. Muxammas aytishuvida har kim ishtirok eta olmaydi. Ishtirokchi so'zamol bo'lmog'i talab etiladi. Xalq orasida ko'pincha baxtu taxtidan tinchigan kayvoni onaxonlar to'y davrasini boshqarib borayotgan ashulaxon-raqqos juvonlar bilan so'zda musobaqalashib, to'y davrasini qizitishadi. Lekin xalq orasida bunday iste'dodli kishilar juda kam topiladi. Shuning uchun boshqalar ularga havas bilan qarashadi.

9. Buxoro to'ylarini muxammasxonliksiz tasavvur qilish kiyin. Ayniqsa, Buxoroda ayollar ishtirokida o'tadigan har bir davrada, albatta, muxammasxonlik tashkil qilinadi.

10. Muxammaslar o'ziga xos g'oyaviy mundarijaga, obrazlar tarkibiga, badiiy qurilishga va ijro ohanggiga ega. Ularda murojaat, ta'rif-tavsif qilish ohanggi etakchilik qilishi kuzatiladi. Ajdodlarimizning tili shirin, gapi qiziq, qalbi saxovat, mehr-muhabbat va muruvvatga to'la, niyatlari pok, yaxshilik va ezgulikka yo'g'irilgan. Ajdodlarimizga xos mana shu shirali til va ezgulikka intilish maqsadi muxammaslar badiiyatida ham yorqin ko'rinadi.

11. To'y muxammaslari hozirgi kundagi to'ylarimizda ham ijro etilmoqda. Ular shaklan xilma-xil bo'lishlariga qaramay, mazmunan ezgulikka xizmat qilishlari bilan umumiylik kasb etadi, hayotiylik va umrboqiylik bilan xalq orasida yashab kelmoqda.

12. Muxammaslar garchi arabcha “beshlik” tushunchasini anglatuvchi atama bilan atalib kelinsa-da, qat’iy va doimiy besh misrali she’riy shakllardan tarkib topgan bo’lmaydi. Ularning uchlik, to’rtlik, beshlik, oltilik, ettilik va sakkizlik ko’rinishlari keng tarqalgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I.Normativ – huquqiy hujjatlar, siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б.245.
2. Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. // Биз ўз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. Танланган асарлар. Т.7. – Т.: Ўзбекистон, 1999. – Б.132-155.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.:Маънавият, 2008. – 174 б.
4. Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т.: Ўзбекистон, 2010. – 40 б.

II.Darslik, o'quv qo'llanmalar, monografiya va risolalar:

5. Алавия М. Ўзбек халқ қўшиқлари. – Т.: Ўз ФА нашриёти, 1959. – Б.316.
6. Алавия М. Ўзбек халқ маросим қўшиқлари. – Т.: Фан, 1974. – 222 б.
7. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 276 б.
8. Ёқуббекова М. Ўзбек халқ қўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 2005. – 160 б.
9. Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – 312 б.
10. Жўраев М., Худойкулова Л. Маросимнома. Ўзбек халқининг урф-одат ва маросимлари ҳақида қисқача маълумотнома. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. – 48 б.
11. Жўраев М. Фольклоршунослик асослари: Ўқув қўлланма. – Т.: Фан, 2009. – 192 б.
12. Исмоилов Ҳ. Ўзбек тўйлари. – Т.: Ўзбекистон, 1992. – 190 б.
13. Mirzayev T., Safarov O., O'rayeva D. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. – Т.: “Aloqachi”, 2008. – 560 б.

- 14.Муродов М., Ҳакимов Н., Эргашев А. Қадриятнома. 1-китоб. – Т.: Меҳнат, 2001. – Б.35-36.
- 15.Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Тошкент: Фан, 2010. – 308 б.
- 16.Нурмуродова Б. Фольклорга оид мақолалар библиографияси. («Ўзбек тили ва адабиёти» журнали бўйича). – Тошкент: Фан, 2008. –
- 17.Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 1986 – 216 б.
- 18.Сафаров О., Маҳмудов М. Оила маънавияти.–Т.: Маънавият, 2009.–248 б.
- 19.Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Darslik. – Т.: “Musiq”, 2010.–367 б.
- 20.Сафров О. Фольклор – бебаҳо хазина. Сайланма. Ўзбек фольклорига оид рисоалар ва мақолалар. – Тошкент: Мухаррир, 2010. – 360 б.
- 21.Эшонқул Ж. Фольклор: образ ва талқин. – Қарши: Насаф, 1999. – 170 б.
- 22.Эшонқул Ж. Эпик тафаккур тадрижи. – Тошкент: Фан, 2006. – 122 б.
- 23.Ўзбек фольклори очерклари. Уч жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Фан, 1988 – 308 б.
- 24.Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Тошкент: Фан, 2004. – 120 б.
- 25.Ғафуров Ғ. Удумларда халқ қалби. – Т.: “Ёш гвардия”, 1986. – 192 б.

III.Ilmīy jurnal dagi maqolalar

- 26.Турдимов Ш. Лирик қўшиқларда рамз. – Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. – 1982. – №3. – Б.16-19.
- 27.Сафаров О. «Келин ўтирсин» ва «куёв ўтирсин» маросим қўшиқлари. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 1989 йил. – 5-сон. – Б.35-39.
- 28.Сафаров О. «Куёв элтиш», «Келин элтиш» удумлари ва жарлар. – Ўзбек тили ва адабиёти». – 1991 йил. – 6-сон. – Б.35-39.
- 29.Сафаров О., Ўраева Д. Ўзбек халқ қўшиқларида этнопедагогик қарашларнинг ифодаланиши. – Бухоро давлат университети илмий ахборотлари. – 2003 йил. – 1-сон. – Б.14-21.

- 30.Ўраева Д. Халқ лирик кўшиқларида параллелизмларнинг бадиий-композицион вазифаси. – Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент. – 1991. – №3. – Б.57-60.

IV. Badiiy adabiyotlar:

- 31.Бухор элда гул сайли. Тўплаб нашрга тайёрловчилар Д.Ўраева ва Д.Ражабов. – Т.: Мухаррир, 2010. – 190 б.
- 32.Гулёр. Фарғона халқ кўшиқлари. Кўп томлик. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Ҳ.Раззоқов. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967. – 248 б.
- 33.Келиной кўшиқлари. Халқ кўшиқлари ва терминлари. Ёзиб олувчи ва нашрга тайёрловчи О.Собиров.- Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 240 б.
- 34.Ой олдида бир юлдуз. Ўзбек халқ маросими кўшиқлари. Тўплаб, нашрга тайёрловчи, кириш сўзи ва изоҳлар муаллифи М. Жўраев. Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. –Б.160.
- 35.Остонаси тиллодан. Тўй кўшиқлари / Нашрга тайёрловчилар: М.Мирзаева, А.Мусақулов. – Т.: Фан, 1992. – 112 б.
- 36.Оқ олма қизил олма. Ўзбек халқ кўшиқлари. Кўп томлик. Тўпловчи М.Алавия. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 232 б.
- 37.Тўй муборак, ёр-ёр. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи О.Сафаров. – Т.: Маънавият, 2000. – 160 б.
- 38.Шода-шода марварид. Ўзбек халқ кўшиқлари. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Э. Очилов. – Т.: Шарқ, 2006. – 416 б.
- 39.Қизил гулнинг ғунчаси. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1999. – 96 б.

V. Dissertatsiya va avtoreferatlar:

- 40.Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикасининг тарихий асослари ва бадиияти: Филол. фанлари д-ри дисс. автореф. – Т., 1995. – 41 б.
- 41.Ўраева Д.С. Ўзбек халқ лирик кўшиқларида параллелизмларнинг

характери ва бадиий-композицион вазифалари: Филол. фан. номз.
...дисс. авторф. – Т., 1993. – 24 б.

42. Исмонова О.О. Ўзбек тўй маросим фольклорида “Келин салом” жанри
(генезиси, ўзига хос хусусиятлари ва поэтикаси): Филол. фан. номз.
...дисс. авторф. – Т., 1999.

YI. Internet saytlari:

43. www.ziyouz.com

44. www.google.uz

Mundarija:

Kirish.....2

Birinchi bob. Buxoro xalq qo'shiqchiligining jahonshumul shuhrati.

I.1.Buxoro folklorining o'zbek folklorshunosligi kontekstida o'rganilishi.....9

I.2. Buxoro folklorida qo'shiqchilik san'ati.....16

Ikkinchi bob. Buxoro to'y folklori tizimida muxammaslarning o'rni va o'zigaxon xususiyatlari.

II. 1. To'y muxammaslarining janriy tabiati va mavzuiy turlari.22

II. 2. To'y muxammaslarining badiiy-kompozitsion qurilishi va tili.....32

Xulosa.....44

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....47